

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy
madaniyat fakulteti dekani
prof. B.S. Abdullayeva
“ _____ ” _____ 2014-yil

«Boshlang‘ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish» ta’lim yo‘nalishi

Mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni ta’limda ijodiy faolligini oshirish

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: IV bosqich “404” guruh talabasi:
Xakimova Zilola Xakim qizi
Ilmiy rahbar: “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi
va tarbiyaviy ishlar metodikasi”
kafedrasi, professori, p.f.d. R.A.Mavlanova

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va
tarbiyaviy ishlar metodikasi”
kafedrasi mudiri p.f.n. dotsent
X.R.Sanaqulov _____
“ _____ ” _____ 2014-yil

Toshkent 2014

M u n d a r i j a

KIRISH

I.bob.Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ta'limda ijodiy faolligini oshirishning pedagogik ahamiyati.

1.1.O'quvchilarni ta'limda ijodiy faolligini oshirishning hozirgi holati.

1.2. Pedagogik texnologiyalarning shakllanishi va tadrijiy rivojlanish tarixi.

1-bob bo'yicha xulosa.

II.bob.O'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.

2.1.Boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiya elementlarini qo'llashning afzalliklari.

2.2.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalar.

2-bob bo'yicha xulosa.

III-bob.O'quvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalar asosida tajriba-sinov ishlarini o'tkazish metodikasi.

3.1. Tajriba-sinov bo'yicha dars ishlamanlar va natijalar tahlili.

Umumiy xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar kadrlar tayyorlash tizimining mukammal bo'lishiga, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishga qaratilgan. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs – fuqaroni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu o'z navbatida fan, texnika, ilg'or texnologiyalar asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish masalasini qo'yadi.

Bu masala Yurtboshimiz tomonidan Oliy Majlisning IX-sessiyasida so'zlagan "Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzuidagi nutqida batafsil yoritib berilgan. Unga ko'ra ta'lim tizimida yangi yuksak vazifalarni amalga oshirish orqali shaxsni shakllantirish masalasi nazarda tutiladi. Shaxsni ta'lim tizimiga kiritilgan yangiliklar orqali faolligini oshirish, uning yangi xususiyatlarini, qobiliyat qirralarini kashf etishni innovatsion texnologiyalar tatbiqi asosida ochish vazifasi qo'yildi. Pedagogik texnologiyalarga o'tish uchun quyidagi vazifalarni belgilab olish zarurati ko'rindi: diagnostika, rejalashtirish va aniq maqsadni belgilab olish. An'anaviy o'quv jarayonida asosan o'qituvchi shaxsi, uning mahoratiga ahamiyat beriladi. Buning uchun uning tajribali bo'lishi, kasbiy malakaga ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishida esa o'quv jarayonini loyihalash orqali pedagog qisqa vaqtda ruhan va aqlan charchamasdan ta'lim samaradorligiga erishishi mumkin.

Aniqlashtirilgan maqsadlar pedagogga nazorat ishini belgilashda, baholashda va ta'lim metodlarini tanlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Aniqlashtirilgan maqsadli loyihada o'qituvchi aniq tushunchalardan foydalanishi lozim. Buning uchun aniq va mavhum tushunchalarni ajrata olishi kerak. Aniq maqsadni belgilash esa o'quvchidan va o'qituvchidan nima talab etilayotganligini anglab yetishga yordam beradi va natijani baholashda qulaylik vujudga keltiradi. Bunda ba'zan og'zaki emas, balki yozma tarzda vazifalarni bajarish imkoniyati yaratiladi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da "Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab

chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi va tajribasini o'rganishda ishtirok etadi", deb belgilab qo'yilgan¹. Jumladan, "...ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish; ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish" uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillaridan biri, deb qaralmoqda.

Ta'lim sohasida yuz bergan sifat o'zgarishlar o'qituvchi shaxsining ta'lim va tarbiya samaradorligini ta'minlashdagi rolini ilmiy jihatdan tadqiq etishni talab qiladi. O'qituvchi shaxsining dars samaradorligini oshirishida uning ijodiy izlanuvchanlik faoliyatining ta'siri borasidagi nazariy qarashlar milliy pedagogikamizda hali yaxlit ilmiy tizim holiga keltirilgan emas.

Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalash jarayonining muvaffaqiyati uchun zamin yaratuvchi omillar sirasida ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, mutaxassislik fanlari asoslarini puxta o'zlashtirgan, shuningdek, pedagogik mahoratga ega o'qituvchilarni tayyorlash alohida o'rin tutadi. Zero, yosh avlodni har jihatdan kamol toptirish, ularda muayyan kasbiy faoliyatni olib borish layoqatini shakllantirish hamda uning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar o'ziga xos rol o'ynaydi.

Mustaqillik yillarida o'qituvchilarning zimmasiga pedagoglik kasbi asoslarini to'laqonli o'zlashtirish, o'zida ijodiy faoliyatni shakllantirish, yosh avlodni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash vazifasi yuklanmoqda. O'qituvchilar tomonidan mazkur ijtimoiy vazifalarning ijobiy qal etilishiga erishish bir necha shartlar asosida faoliyat yuritishni talab etadi. Chunonchi, o'qituvchilarda kasbiy faoliyatni tashkil etishga nisbatan yangicha, ilg'or, ijodiy izlanuvchanlik yondashuvning qaror topishiga erishish; O'qituvchi faoliyatida yetakchi o'rin tutgan avtoritarlik uslubi o'rnini demokratik boshqaruv egallashi, ta'lim jarayonida ijodiy izlanuvchanlik faoliyat yuritishlari, shuningdek, erkin fikrlashlari uchun sharoit yaratish, o'qituvchi tomonidan o'qituvchi shaxsining

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997 y

hurmat qilish mamlakatimizda kabul kilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining asosiy maqsadlaridan biri ijtimoiy-siyosiy xayotda faol, mustaqil faoliyat ko'rsatadigan, erkin fikrlaydigan shaxsni shaqllantirishdir. Shu maqsadda shaxsni xar tomonlama ijtimoiy shaqllanishini ta'minlaydigan zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi. Uzluksiz ta'limning moqiyati anik maqsad yulida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsni shaqllantirish borasida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashdan iborat. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyatni yangilashda asosiy masala hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning bilim darajasiga bog'liq.

Yosh avlodni qar tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida tarbiyalash uchun imkon beruvchi, mukammal ta'lim tizimini yaratish, uning samaradorligini oshirish kabi masalalar tashkil etadi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g'oyalariga muvofiq jamiyatda kadrlar tayyorlash borasida o'ziga xos milliy model yaratildi. Milliy model o'z mohiyati bilan barkamol shaxs va malakali kadr tayyorlashga xizmat qiladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturimizda belgilangan ... kabi vazifalar to'liq amalga oshgan taqdirda ular, birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizda mavjud muhit butunlay o'zgaradi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitishning interfaol metodlarini qo'llash va o'quvchilarni faolliligini oshirish hozirgi kunning dolzarb muommolarini tashkil etadi.

2005 yil va undan keyingi davrlarda «...ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, ta'lim jarayonini yangi o'kuv-uslubiy majmualar, interfaol metodlaridan foydalanish» ga yo'naltirilgan ijtimoiy xarakat yo'lga qo'yiladi.

boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan interfaol metodlarini qo'llash asosida tashkil etish quyidagi afzalliklarga ega:

- boshlang'ich sinf darslari demokratik, ijodiy xarakter kasb etadi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faolliklari ta'minlanib, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalari shaqllanadi;

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga berilayotgan umumiy ma'lumotlar hajmining asosiy qismini amaliy bilimlar tashkil etadi, ularga nazariy ma'lumotlarni taqdim etish, mohiyatini amaliy faoliyat vositasida to'laqonli ochib berish bilan uyg'unlashtirilgan holda olib boriladi;

- pedagog, ishlab chiqarish ustasining faoliyati faqatgina nazariy bilimlarni yetkazib berishdangina iborat bo'lib qolmay, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga rag'batlantirish, mustaqil ta'lim olish hamda fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishlariga ko'maklashish, shuningdek, ularning faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish, zarur o'rinlarda tezkor metodik yordamni tashkil etish, ularning faoliyatlari natijasini ob'ektiv baqolashga yo'naltiradi;

- o'quv jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv predmetlari qamda muayyan kasb-qunar asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga sarflanayotgan vaqt kamayadi;

boshlang'ich sinflarda darslarining samaradorligi ortadi.

Boshlang'ich sinf darslariga interfaol metodlardan aqliy xujum, klaster, suxbat, baxs, munozara, boshqotirma, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zaruriyati pedagogik texnologiyaning mazmuni hamda an'anaviy ta'lim mohiyatini o'rganish, taqlil etish asosida yuzaga keladi.

Bizga yaxshi ma'lumki, an'anaviy ta'lim mazmunini asosan pedagog, ustaning bu jarayondagi avtoritar mavqei, boshlang'ich sinf o'quvchilarining sust faoliyati asosiga qurilgan bo'lib, boshlang'ich sinf uchun ajratilgan vaqtning asosiy qismi pedagoglar tomonidan muhim nazariy ma'lumotlarni bayon etishga sarflanar, boshlang'ich sinf o'quvchilarining faolligini ta'minlashga zaruriyat sezilmasligini ifoda etardi. Pedagog boshlang'ich sinf o'quvchilarining faolligini yuzaga keltirishga vaqt nuqtai nazardan qam imkon topa olmas edi. boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini nazorat qilish esa yozma ish va imtihon natijalari asosida baholanar edi. Vaholanki, o'quvchining muayyan davrdagi faoliyatini

ma'lum vaziyatlarda aks etgan ko'rsatkichlar bilan baholanishi ob'ektiv yondashuv emasligi pedagogik amaliyotda tasdiqlangan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bu sohani davr talablari asosida takomillashtirishga xizmat qiladi, interfaol metodlarni qo'llash, boshlang'ich sinf darslari o'quv jarayonini interfaol metodlari asosida tashkil etish muhimdir.

Amerikalik pedagog olimlar Bob Kizlik va F.S.Keller pedagogik texnika nazariyasi g'oyalarini yagona ta'lim tizimining muayyan bosqichiga tatbiq etish borasida muhim ishlarni amalga oshirdi va oliy o'quv yurtlari faoliyatiga pedagogik texnologiya usulini qo'llashning individuallashtirilgan tizimini yaratdilar. L.A.Boykova, L.K.Grebenkina kabi olimlarning tadqiqotlarida pedagogik texnologiya nazariyasining pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish, bu borada samaradorlikka erishish, pedagoglar maqoratini oshirishdagi aqamiyati kabi masalalar yoritilgan bo'lsa, taniqli rus olimi I.P.Ivanov jamoaviy-ijodiy faoliyatni tashkil etish texnologiyasini yaratishga asosiy e'tiborni qaratdi.

Boshlang'ich sinf ta'lim jarayoni bilan tanishish, shuningdek, tadqiqot muammosiga doir manbalarni o'rganish, ularda ilgari surilgan g'oyalar mazmunini taqlil etish shuni ko'rsatadiki, o'quv muassasalarida boshlang'ich sinf darslariga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish borasida yetarli darajada tajriba to'planilmagan. Salmoqli miqdorni tashkil etuvchi pedagog xodimlar esa mazkur nazariya mohiyatini to'laqonli anglab yetmaganlar. boshlang'ich sinf darslarining ta'lim jarayonini interfaol metodlari asosida tashkil etishning nazariy-amaliy asoslarini yaratish, mashg'ulotlarning puhta o'ylangan, ilmiy asoslangan loyihalarini ishlab chiqish masalalarini tadqiq etish e'tibordan chetda qolgan.Yuqorida ilgari surilgan fikirlardan kelib chiqqan holda biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish" deb tanlab oldik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiya ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish mazmuni, shakli, metodlari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. Mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalarni o'rganish asosida darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo ekanligini ilmiy jixatdan asoslash.

2. Boshlang'ich sinf darslarini texnologiyalashtirishning mavjud ahvoli va pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.

3. Boshlang'ich sinf darslari o'quv hamda tarbiya faoliyatini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning mazmuni o'rganish.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari: nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, anketa, savol-javob, suhbat, ekspert baholash.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va asarlarida bayon etilgan mazkur mavzuga oid qarash qamda yondoshuvlar, O'zbekiston Respublikasi hukumati Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining qarorlari, buyruqlari, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Davlat ta'lim standartlari, ta'lim texnologiyasi nazariyasi, bixeviorizm hamda shaxsni shaqllantirish haqidagi falsafiy, pedagogik va psixologik ta'limotlar, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi: BMI kirish, 3 bob, 5 paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ta'limda ijodiy faolligini oshirishning pedagogik ahamiyati.

1.1.O'quvchilarni ta'limda ijodiy faolligini oshirishning hozirgi holati.

Bizning bosh maksadimiz bulgan uzbek modelini amalga oshirishda iktisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy, ma'rifiy yunalishlardagi islohatlarni amalga oshirishda demokratik, fuqorolik, jamiyatimizning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi erkin shaxs tarbiyasi, uning mustaqil tafakkurini uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichlaridan shakllantirib borish fuqorolik jamiyatining asosiy talablaridan biridir.

Aynan, o'quv faoliyati orqali o'quvchilarning ta'lim mazmunini egallashi darajasi asosida, ya'ni respublikamizda qabul qilingan DTS doirasida shaxs dunyoqarashi, tafakkuri shakllanadi, ijtimoiy tuzumga ongli munosabati tarkib topadi. Demak, ta'lim mazmunini chuqur o'zlashtirishni mustaqil tafakkurini shakllantiruvchi omil deb qaraymiz. Ushbu nuqtai nazardan o'quv faoliyatini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirish bo'lib qolmay, balki ijtimoiy zarurat talabidan kelib chiqqan holda demokratik, fuqorolik jamiyatining faol ishtirokchisini shakllantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Demak, ta'lim jarayoni asosida bola shaxsining erkin tafakkurini shakllantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash har bir pedagogning diqqat e'tiborida bo'lishi lozim.

Ma'lumki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ularni har tomonlama o'zlashtirish zarurligi ko'p karra takrorlanadi. Umuman olganda bu iboraning leksikologiyamizga kirib kelganiga ko'p fursat bo'lgani ham yo'q. Shu o'rinda pedagogik texnologiyaning mazmuni nima?. Tushunchaning pedagogik va umuman ta'lim jarayoniga qanday aloqasi bor?-savol tug'ilishi tabiiy hol.

Bu savolga pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Ch.E.Mirzaev quyidagicha javob beradi: «Ta'limga texnologik yondashuv-ta'lim mazmunini har tomonlama tahlil qilish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) va xususiy(muayyan fanlarning mazmunini o'zlashtirish bilan

bog'liq) maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchi maqsadlari uchrashgan nuqtalarda (identiv o'quv maqsadi) ta'limning didaktik maqsadlarini aniqlash yo'li bilan ta'limni kompleks loyihalash, ilmiy asoslangan loyihaga ko'ra ko'zlangan natijaga kafolatlangan erishishdir».

Joylarda pedagoglar bilan o'tkazilgan muloqatlar shundan dalolat beradiki, ularning aksariyati zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bir tomonlama anglaydilar, ko'pincha uni «yangi metodik jarayon» deb hisoblaydilar.

To'g'ri, ta'lim texnologiyasida o'quv–tarbiya jarayonini metodik ta'minlashga katta imkoniyatlar bor. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish masalasining bir tomoni xolos. Keng ma'noda esa o'quv–tarbiya jarayonining yaxlit tarzda, mazmunli amalga oshirish texnikasi, uning pirovard natijalari samaradorligini belgilovchi omil, o'qituvchi, kadrlarni mahoratga, samarali mehnat qilishga yetaklovchi yo'ldir.

Pedagogik jarayonda muayyan mavzu, fan asoslaridan o'quvchilarga ko'nikma darajasida tez va qulay bilim berish ham ta'lim texnologiyasini muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi mahorati ham muhim rol o'ynaydi. Ta'lim mazmunidagi uzluksizlikni ta'minlash ta'limning maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va uning jarayonlari kabi tarkibiy qismlari orasidagi 5uzviylikka bog'liq. Chunki, ta'limda har bir fanni o'rganish maqsadi (nima uchun o'qitish kerak?)dan kelib chiquvchi o'quv dasturi va DTS talablariga mos o'quv mazmuni tanlanadi. Ta'lim mazmunini (nimani o'qitish kerak?) o'zlashtirish uchun esa qulay bo'lgan metodlar tanlanadi. Tanlangan metodlar (kimni va qanday o'qitish kerak?) yordamida mazmun egallanadi. So'ngra ta'lim uchun tayyorlangan vositalar (ko'rgazmali va texnik vositalar) va ta'lim jarayoni, unga yetarli darajada mos uning mashg'ulot shakli tanlanadi.

Fan va texnikaning, jumladan, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarining rivojlanishi ta'lim mazmuni va uning metodlariga yangi talablarni qo'yaveradi, ya'ni bu rivojlanish muammolarni keltirib chiqaradi. Ta'lim mazmuni jamiyat talabiga javob bermay tez-tez eskirib qoladigan holatlar ham ko'p uchraydi.

An'anaviy metodikada o'quvchi shaxsining rivojlanishini hisobga olgan holda bilimni ko'nikmaga undan esa malakagacha rivojlanishini ta'minlovchi mexanizm yaratilmagan. O'qituvchi o'quvchiga asosan axborot beruvchi manba hisoblanadi, ya'ni bilim olishda: axborotlarni to'plash va qayta ishlash: o'rganilgan axborotlarni amalda qo'llash bilishning 3 ta bosqichdan iborat modeliga rioya qilavermaydi. Dars jarayonida olingan bilim keyingi pog'anaga ya'ni faollashuv pog'onasiga ko'tarilmaydi. An'anaviy metodikada yaratilgan juda ko'p tavsiya va nazariyalar amalda qo'llanilmaydi yoki qo'llashga noqulay. Shu boisdan ta'limda yuzakichilikka yo'l qo'yiladi. Ta'lim jarayonida maqsad, mazmun, metod, vosita va shakl orasida ziddiyatlar esa ta'lim samaradorligiga erishishda asosiy to'siq bo'lmoqda.

Xo'sh, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga to'laqonli erishish uchun avvalambor, nimalarni e'tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor?.

Bu savolga javobni izlashda biz Mavlonovanning bu boradagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildik: «Respublikamizda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalasi bo'yicha izlanishda o'qitishning yangi usullari asta-sekin mustahkam o'rin olmoqda. Bunday usullarga muammoli vaziyatni tashkil etish, guruhlar bilan ishlash kabi usullarni kiritishimiz mumkin. Lekin o'qitishning yangi usullari asosan maktabning yuqori sinflarida samarali qo'llanib kelinmoqda. Xo'sh, boshlang'ich ta'limda nimalar bo'layotir?.

Boshlang'ich maktab har qanday holda ham o'quvchilarda bilimlarni shakllantirishda va ularning qobiliyatlarini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi va undan keyin ham shunday bo'lishi kerak. Ammo boshlang'ich maktabdagi barcha o'qituvchilar bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalga oshirayotirmi?. Masalan, nima uchun yuqori sinflarda a'lo bahoga o'zlashtiradigan bolalar soni kamayib bormoqda?.

Maktabni bitta yoki ikkita o'quvchi oltin medal bilan bitirishini qanday tushunish kerak?. Iste'dodli, qobiliyatli bolalar yo'qmi yoki o'qitish jarayoni shunchalik samarasiz bo'lib qolganmi?. Bularning sababi nima?. Sababi ko'p. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar bilan induvidal ish olib borish

imkoniyati cheklangan. Sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga alohida e'tibor berish zarur. Ikkinchidan, mazkur o'qituvchilarning metodik saviyasi yetarli emas. Sinfdagi umumiy ishlar jarayonida qobiliyatli bolalarning ijodiy imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.

Ular o'z qobiliyatlarini ko'rsata olmayotir. O'qituvchi kuchi va e'tibori butun sinfga qaratilib, qobiliyatli bolalar ko'zga tashlanmayotir. Umumiy aytganda, xususan bolalarni saralash va o'qitishga boshqacha yondashish bilan ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish kerak».

Ana'anaviy dars o'tish jarayonida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlar foydalaniladi. Shu sababli bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayoning passiv ishtirokchisiga aylanib qoladilar. Bolalarda betinim jiddiy dars beraverish, ustma-ust nazariy bilimlar, qoidalar bilan qurollantiraverish ularni o'qishdan bezdirib qo'yadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarida bunday hol ko'p uchraydi.

Buning oldini olish uchun nima qilish kerak?. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rivojlantirib turilishi, o'quv mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollar keltirish, o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan joyida va o'z vaqtida foydalanish talab etiladi.

Pedagogik texnologiyaning keng miqyosda ta'lim jarayoniga tadbiiq etilayotganligining boisi shundaki, unda o'quv maqsadlariga garovli erishiladi.

Texnologik yondashuvning eng avvalo yuzakichilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi samarali yondashuv ekanligini anglagan o'qituvchilar uni o'z faoliyatlariga tadbiiq etmoqdalar.

Jumladan, II-darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni nishondori, oliy toifali o'qituvchi H.Rahmatullaeva ilg'or pedagogik texnologiyalarning afzalligi haqida

shunday deydi: «O‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etayotganligim bois o‘quvchilarning dars o‘zlashtirishi sifati oshib bormoqda. Bolalarda erkin fikrlash, o‘z fikrini mustaqil bayon etib berish, ko‘proq bilishga intilish ortmoqda, ular xotirasida o‘tilgan mavzular ko‘proq saqlanib qolishga erishmoqdaman».

An’anaviy o‘quv jarayonida asosiy omil-pedagog (va uning faoliyati) hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o‘rinda o‘qish jarayonidagi o‘quvchilar faoliyati qo‘yiladi. Bu esa o‘quvchining nafaqat ta’lim jarayoni ob’ekti, balki uni ta’lim jarayonining faol sub’ekti sifatida namoyon bo‘lishiga imkon beradi.

Prezidentimiz I.A Karimov milliy mafkura masalalariga to‘xtalar ekan, «fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat» zarurligini uqtiradi va o‘qitish erkin fikrli kishilarni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi, bu islohatlarni amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish lozimligini ta’kidlab o‘tadi.

O‘tib kelayotgan yosh avlodda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, sog‘lom va barkamol naslni tarbiyalab etishtirish murabbiylarning muhim burchidir. Chunki mustaqil fikrlovchi o‘quvchilargina kelajakda har tomonlama yetuk, barkamol insonlar bo‘lib yetishib, mustaqil respublikamizni ilg‘or jahon davlatlari qatoriga olib chiqadilar.

Shu o‘rinda Z.Nishonovanning «Mustaqil fikrlashga o‘rgatish» nomli maqolasidagi quyidagi fikrlarni keltirib o‘tish o‘rinlidir: «Hozirgi davr o‘qitish tizimi ham ko‘proq xotirani rivojlantirishga qaratilgan. Biroq ayrim o‘qituvchilarda bugun bir mavzuni tushuntirib, tayyor holda o‘quvchilarga yetkazib berib, ertasiga shu mavzuning mazmunini so‘rashi yoki she’rni yod olishga berish hollari ko‘proq uchraydi. Bunday darsda hech qanday muammoli vaziyat yaratilmaydi va buning natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga imkon berilmaydi. O‘qituvchilarning o‘zlari o‘quvchilarning mustaqil fikr yurita olmasligini bilishadi. Lekin qanday qilib o‘quvchida mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish mumkin? - deb berilgan savolga javob berishga qiynaladilar».

J.Tolipovanning fikricha: «Fikr-bu insonning faoliyati, iqtidor, qudrati va bilimini namoyon etadigan ma'naviy, ahloqiy, insoniy sifatidir. Fikr rivoji jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi uchun, o'quvchilarning kelgusida jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri topishi, ijodiy va ijtimoiy faol bo'lishini nazarda tutgan holda o'qitish jarayonida ularning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur»dir.

Ayni kunda respublikamiz ta'lim fidoiylari dars berishning o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi usul va uslublarini joriy qilishmoqda. «Aqliy hujum», «Muzyorar», «Intervyu», «Debat», «Bahs-munozara», «Guruhlarga bo'lib ishlash», «Interfaol», «Klaster», «Chigil yozdi», «Konferensiya», «Seminar» kabi ko'plab dars berish usullari bugungi kunda o'qituvchilarimiz tomonidan samarali qo'llanib kelinmoqda.

Ammo shunday muammolar borki, ayrim o'qituvchilar tomonidan bu usullar noto'g'ri va samarasiz foydalanilayapti. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda o'z kasbini, qolaversa, o'z mutaxassisligini bilmaydigan o'qituvchilarga bu usullar juda ma'qul bo'lmoqda. «Yangi pedagogik texnologiyaning talabi shu», «o'quvchilarni mustaqil o'qishga va fikrlashga o'rgatayapmiz» degan bahonalarda darsga tayyorgarliksiz keladigan o'qituvchilar ham anchagina.

Biz o'qituvchi bolalarga zamonaviy bilim berishi kerak!- deb ko'p ta'kidlaymiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi darkor. Ushbu fikr Prezidentimiz tomonidan ham bir necha bor ta'kidlangan.

Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishda asosiy muammo ham shunda. O'qituvchi qaysi mavzuni qaysi dars o'tish usuli va uslublaridan foydalangan holda o'rgatishni oldindan rejalashtirmog'i lozim. Har bir darsni qaysi usul va uslublardan foydalangan holda olib borsa, samarali bo'lishini aniq bilishi kerak. Axir har qanday darsni ham mustaqil o'qish va aytib berish orqali o'rganib bo'lmaydiku. Shu joyda yana bir og'ir savolga duch kelamiz: Bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydilar?. Umuman, maktabda mustaqil fikrlashga o'rgatiladimi?.

Sinov-tajriba ishlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar fikrini aniq qilib o'quvchiga yetkazib bera olmaydi, biladi-yu shuni o'qituvchiga aytishdan qo'rqadi. Biz mana shu masalaga jiddiyroq yondashmog'imiz darkor.

Bugungi kun pedagog-o'qituvchilari bu muammoning asl mohiyatini tushunib yetmoqdami?. Biz bir guruh o'qituvchilarga bu masala yuzasidan anketa savollari bilan murojaat qilganimizda (1-ilova) javoblar natijasi shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 7% bu borada ijodiy izlanayotgan ekanlar, 43% o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini uyushtirishda ilg'or tajribalardan foydalanadi-yu, lekin yaxshi natijalarga erisha olmaydi, bu uning asl mohiyatini tushunib yetmaganligidan dalolat. 35% o'qituvchi esa pedagogik kasbga tayyorgarlik ko'rgan va malaka oshirish davridagi bilimlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiladi, 15% o'qituvchi faqat darslikka tayanib ish ko'radi. Ko'rinib turibdiki, bu muammo ham hanuzgacha o'z yechimini topgani yo'q.

Milliy dasturni ro'yobga chiqarishning 2-bosqichida o'quv-tarbiya jarayoni yuqori o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi, deb qat'iy belgilandi, ammo maktablardagi ahvolni o'rganib chiqar ekanmiz, buning aksini ko'rishimiz tabiiy. Vohalanki, o'qituvchilarning o'zi hali pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyati, o'qitishning zamonaviy usullari to'g'risida deyarli tassavvurga ega emaslar. Shuni aytib o'tish joizki, qishloq maktablarida ta'lim-tarbiya jarayoni hamon an'anaviy usulda olib borilmoqda. Natijada ko'pchilik o'quvchilar yuqori sinflarda dars o'zlashtirishlari qiyinlashmoqda. Shuni inobatga olib, avval maktab rahbarining o'zlari ilg'or pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lishlari shartligini aytib o'tmoqchiman. O'qituvchilar darslarini tahlil qilganda yangi dars usullari, uning afzalliklarining atroflicha ma'no-mazmunini ochib berishlari lozim. Har bir maktabda ilg'or pedagogik tajribalar xonasi yoki alohida maxsus shkaflar, stollar tashkil etilishi kerak. Toki har bir o'qituvchi shu joydan o'ziga kerakli ma'lumotlarni ola bilsin. Bundan tashqari, o'qituvchiga o'z ustida ishlashi uchun sharoit yaratib berish darkor.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, faqatgina fikrlash, mushohada qilish yo'li bilan egallangan bilimgina xotirada saqlanib qolinar ekan. Shu boisdan o'qituvchi faolligiga asoslangan an'anaviy dars o'tish uslubidan voz kechilib, zamon talablariga javob beruvchi o'qitishning zamonaviy usularidan foydalanishni davrning o'zi taqozo qilmoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi S.Turg'unov boshlang'ich ta'lim muammolarini tahlil qilib bu borada o'z fikrini bayon qiladi: «Mamlakatimiz mustaqil bo'lguncha o'qituvchining ishi ham, ijodkorligi ham chegaralangan edi. O'qituvchi dars o'tish metodikasida berilgan dars etaplariga qat'iy rioya qilgan holda konspekt tuzib, shu rejaga asoslangan holda dars o'tmog'i lozim edi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalardagi kabi maorifda ham islohatlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash maqsadida bolalar bog'chasidan boshlab oliy maktabgacha e'tibor kuchaytirilib, dastur va darsliklar yangilanmoqda, yangi-yangi dars o'tish usullari vujudga kelmoqda. O'qituvchi ijodkorligi oshirildi, bu esa ta'lim-tarbiya borasida anchagina siljishni vujudga keltirdi. Noan'anaviy darslar:ertak,sayohat, musobaqa, bozor, sport, o'yin turlaridan foydalanib yaratilgan darslar durust samara bermoqda. Bu o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirmoqda, o'qituvchining ijodkorligini charxlab bormoqda».

Xo'sh, zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak?. Bola 1-4 sinflarda qanday bilimlarga ega bo'lishi lozim?. Bolalarda qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usul va uslubda ta'lim berish kerak?. Bu masalalarga javob topishimiz zarur.

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan. Chunonchi: bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni

yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi

Mazkur maqsad va vazifalarni chuqur tahlil qilib, quyidagicha talqin qilish mumkin. Demak, har bir bolada yashirin holda yuragining tubida biror narsaga qiziqish, intilish ya'ni boshqacha qilib aytganda, iqtidor kurtaklari bo'ladi, ularni aniqlash hamda rivojlantirish kerak. Bu jarayon esa juda murakkabdir. Ana shu murakkabligi bilan boshlang'ich ta'lim boshqa ta'lim bosqichlaridan ajralib turadi. Chunki boshlang'ich ta'limda fanlarning asosi–alifbo o'rgatiladi. Boshlang'ich ta'limda o'rgatiladigan fanlar alifbosi DTSda belgilab berilgan, shu asosida darslarda har bir o'quvchi o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar doirasi o'rgatiladi. Agar o'quvchi 4 yil mobaynida shu fanlar alifbosini o'zlashtira olmasa, u ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettira olmaydi. Demak, biz o'quvchilarning turli o'quv faoliyatlarini, usullarini o'zlashtirishlariga imkoniyat va shart-sharoit yaratib berishimiz lozim.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyida biz matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil, ijodiy fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillarini quyidagilarda ko'ramiz:

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchi har bir sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlarini yaqindan bilishi hamda shu asosda

darsni tashkil etish lozim: O'qituvchi misol va masalalarning yechimi sharti shunday usulda berishi kerakki, natijada ular bu jarayonda ijodiy izlansinlar.

Masalan, o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil bajarishlari uchun quyidagi masalaning qisqa yozuvini doskaga yozadi: 1-yashikda-20 kg olma : 2-yashikda -? 5 kg ortiq olma.

Bu yerda o'quvchilar masala olma haqida ekanligini, ikkita noma'lum borligini, masalaning javobi qanday topilishini tezda tahlil qiladilar va natijani topadilar. Biz bu yerda o'quvchining fikrlashini ma'lum ma'noda chegaralab qo'ydik. Endi quyidagi qisqa yozuvni ko'raylik: 1-20 kg : 2-?5 kg ortiq. O'quvchilar mustaqil fikr yuritgan holda qanday narsalar massada o'lchanishini esga oladilar va sinfdagi 30 o'quvchi shu shart asosida 30 xil masala tuzishi, uni

yechish namunasini berishi mumkin. Agar o'qituvchi shu kabi usullar bilan o'quvchilarda mustaqil ravishda masalalarni yechish ko'nikmasini shakllantira olsa, u holda o'quv faoliyatini yuqori darajaga ko'targan bo'ladi.

Umuman, 1-4-sinflarda joriy etiladigan pedagogik texnologiyalar avvalo fanlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash, bolalarni ortiqcha qiyinchiliklardan ozod etish, buning uchun fanlarni integratsiyalash, o'quvchi faoliyatini to'g'ri izga solish, vaqtdan unumli foydalanish, sinfda va sinfdan tashqari vaqtlarda bolalar orasida tashabbuskorlik muhitini yuzaga keltirish, erkin fikrlash, ijodiy izlanish tizimini yaratish kabi qator ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

1.2. Pedagogik texnologiyalarning shakllanishi va tadrijiy rivojlanish tarixi.

Tarixiy nuqtayi nazardan olib qaranganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi, chunki odam-zod o'z aql-idrokiga ega bo'lgan davrdan boshlab kishilik jamiyatini saqlab qolish va taraqqiy ettirish uchun yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish tajribalarini u yoki bu tarzda o'rgatayпти. Bu jarayon tarkib topib, an'ana tusini olgan va hayotda sayqal topib hozirgi pedagogik texnologiyalar darajasiga ko'tarildi.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilk bor tarkib topishi, uning dastlabki elementlarining hosil bo'lishi va takomillashuvi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Zero, pedagogik texnologiyalar odamlar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish faoliyati bilan shug'ullana boshlagan davrdan shakllangan bo'lib, uzoq rivojlanish va taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, deb hisoblash mumkin.

Yozuv paydo bo'lmagan zamonlarda, ta'lim-tarbiya ishlari asosan oilada va keyinchalik jamoatchilik asosida, o'qitishda esa so'zlab berish yoki ko'rsatib, tushuntirish usullarida amalga oshirilgan. Yozuv va qo'g'oz qo'lyozma kitoblar paydo bo'lgan dastlabki davrlarda yozish va o'qishga o'rgatilgan. Yozuv va o'qishni asosan, yuqori tabaqa vakillari bilishgan. Ana shu davrlarda savod o'rgatish usullari shakllana boshlagan. Yakka va guruhli ta'lim usuli qo'llangan.

Toshbosma kitoblar paydo bo'lgan davrlarda savodlilar soni ortib borib, savod o'rgatish ham rivojlana boshlagan. VIII-X asrlarda maktablar va madrasalar ochilib, ularda asosan, ta'limning dogmatik usullari qo'llangan.

Hozirgi O'zbekiston hududida tashkil etilgan maktab va madrasalarda savod o'rgatish texnologiyasining quyidagi bir necha usullari shakllangan va amalda qo'llanib kelingan:

Tovush usuli (usuli savtiya) – arabcha harflarni ovozlari bilan tanitish. Bu usulni qo'llash bilan talabalarda ilmiy bilish metodlari (qiyoslash, ajratib olish, solishtirish, umumlashtirish kabilarga xos layoqat (ko'nikma) va malakalar rivojlanib boradi. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) Turkiston jaddilari orasida birinchilardan bo'lib savod o'rgatishda tovush usulini amalda qo'lladi.

Tovush usulida jadid maktablari uchun Munavvarqori Abdurashid-xonov (1878-1931) 1907-yilda “Adabi avval” (“Birinchii o‘qituvchi”) alifbo darsligini va “Adabi soniy” (“Ikkinchi o‘qituvchi”) o‘qish kitobi-ni; Saidrasul Saidaziziy (1864-1933) “Ustodi avval” darsligini yaratdi.

Abdulla Avloniyning “Birinchii muallim” (1902) darsligi maddiya usulida yaratildi. Maddiya usuli (usuli maddiya: madd-cho‘zish) undosh tovushlarning nomi bir-biriga qo‘shilmaydi, balki bir undosh tovushning nomiga bir unli tovush qo‘shilib, ochiq bo‘g‘in hosil qilinadi.

Tahlil-tarkib usuli (sintetik usul) asosida tuzilgan alifbolarda uslubiy materiallarni joylashtirishda osondan qiyinga tomon borish metodiga amal qilindi. Bu alifbolarda o‘quv materiallari mazmuni nihoyatda o‘xshash bo‘lib, ular bir-biridan tovush usuli yoki usuli maddiyada tuzilganligi bilan farqlanadi. M: *Tilingni saqla, o‘zingni chaqmasun. Daraxt havodan bahra olur, odam duodan. Xat yozmoq yarim ilm. Yodga olgan yo‘qolur, yozil-sa yo‘qolmas.*

Butun so‘zlar usuli asosida yaratilgan alifbodagi matnlarda quyida-giga o‘xshash misollar qo‘llanilgan: *Qator-qator tish qo‘ydim, jayron ot-ni bo‘sh qo‘ydim* (tish va til), *yalt-yalt etadi, yamlab yutadi* (olov).

Izohli o‘qish usuli – XIX asrning 90-yillarida Turkistondagi yangi usul maktablarida qator dunyoviy fanlar o‘qitilishida qo‘llanildi. Bun-da, asosan, talabaniing oldin bilimni o‘zlashtirishiga, so‘ngra yod olishi-ga e‘tibor berilgan.

Hijo usuli (usuli tahajji)da harflarning nomini yodlatish asos qilib olinganligidan savod o‘rgatish og‘ir edi.

Usuli tahajji eng qiyin va qadimiy usul bo‘lib, o‘zbek maktablarida XX asr boshlarigacha asosiy o‘qitish usuli sifatida qo‘llanildi.

Imlo usuli - muallim –ustoz aytib turganni talabalar yozganlar (VIII-IX asrlarda).

Tadris usuli (tadris-izoh, sharh) X asrdan ilgariroq Markaziy Osiyo-da tarqalgan o‘qituv usulidir.

Ma‘lumki, XX asrda fizika, mexanika, kimyo, biologiya, matemati-ka, informatika va boshqa fanlarning yutuqlariga tayangan fan-texnika taraqqiyoti

texnologik inqilobni keltirib chiqardi. Natijada, fan-texnika sohasida 1870-yildan boshlab “texnik-texnologiya” atamasi keng qo‘llana boshladi. “Texnologiya” yunoncha so‘z bo‘lib, “texnos” (techne)-mahorat, san’at va “logos” (Logos) - fan tushuncha, ta’limot ma’nolarini anglatadi. Odatda, “Texnik texnologiya” atamasi dastlab ishlab chiqarishda qo‘llanilgan bo‘lib, unga xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlarga ishlov berish yoki ularning tarkibini, xususiyatlarini, tayyorlanishini, qo‘llanish sohasini o‘zgartirish usullari haqidagi fan sifatida tushunilgan.²

Fan-texnikani yuksak taraqqiyoti tufayli texnologiya tushunchasi ham takomillashib, mazmunan chuqurlashib borgan. Patent, litsenziyalar sotiladigan va sotib olinadigan bo‘lgach, texnologiya deganda tayyor mahsulot olish, xomashyo va materiallarga ishlov berish usullari, bajariladigan ishlarning ketma-ketligi va qanday tarzda bajarilishi haqidagi hujjat ham tushuniladigan bo‘ldi. Masalan, sanoatda ishlab chiqariladigan mahsulot, aytaylik, detal loyihalanganda qanday materialdan tayyorlanadi, shakli qanday bo‘ladi, buning uchun standart belgilari, chizmalarga ular-dagi o‘lchamlarni aniqlash va boshqa talablar aks ettiriladi. Fan-texnika taraqqiyoti “Texnologiya”ni fan sifatida ham o‘rganishni obyektiv zaruriyat qilib qo‘ydi. U fan sifatida fizik, ximik, mexanik va boshqa qonuni-yatlarni aniqlash orqali mahsulot ishlab chiqarishning samarali usullarini o‘rganish, yangilarini topish va tajribada sinashni o‘rganadi.³ Texnologiyani fan sifatidagi vazifasi-moddiy resurslar va vaqtni eng kam sarflashni talab qiladigan samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash hamda qo‘llash maqsadida fizik, ximik, mexanik qonuniyatlarni topish va amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi.

Ishlab chiqarishda – “texnologiya” atamasining mazmun-mohiyatini anglatuvchi quyidagi tushunchalar mavjud:

Texnologik jarayon – ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisi.

² Qarang: Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Jadid tarbiyashunosligi asoslari. - T.: O‘qituvchi, 1994, 21-75-betlar; Yo‘ldoshev J.G.; Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: O‘qituvchi, 2004, 48-50-betlar.

³ Qarang: Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Jadid tarbiyashunosligi asoslari. - T.: O‘qituvchi, 1994, 21-75-betlar; Yo‘ldoshev J.G.; Usmonov S.A. Pedagogik Texnologiya asoslari. - T.: O‘qituvchi, 2004, 48-50-betlar.

Texnologik operatsiya – ishchi tomonidan o‘zining ish joyida bajarila-digan yakuniga yetkaziladigan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita – ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texno-logik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim – texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda baja-riladigan operatsiyalarning vaqti, sharoitlarini belgilaydi. Umuman, ish-lab chiqarishdagi texnologiyada turli xomashyo materiallariga ishlov be-rish operatsiyalari yuqori darajali kasb ustalari tomonidan bajarilsagina mahsulot sifati kafolatlanadi.

Aynan ana shu obyektiv zaruriyat tufayli texnika va texnologiyalar-ni tushunadigan, ularni ishlata oladigan, loyihada aks ettirilgan chizma va texnologiya bo‘yicha belgilangan standartdagi mahsulot yarata oladi-gan yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash ehtiyoji tug‘iladi. Pedagog va psixolog olimlar ishlab chiqarish texnologiyasini nazarda tutgan holda o‘quv jarayonini ham “texnologiyalashtirishga”, ya’ni o‘qitish natijasini kafolatlangan o‘ziga xos texnologik jarayonga aylantirishga harakat qi-ladilar. Natijada, pedagogikada yangi yo‘nalish – ta’lim texnologiyasi, xususan, o‘qitish va tarbiyalash texnologiyasi paydo bo‘ldi.

“Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi inglizcha “an educational tech-nology”-ta’lim (o‘qitish) jarayonini yuksak nazorat, san’at darajasida tashkil etish borasida ma’lumotlar beruvchi fan (yoki) ta’limot ma’no-sini anglatadi.

Yigirmanchi asrning 30-yillarida AQSh ta’lim tizimiga audiovizual o‘qitish dasturlari kiritila boshlandi. Bu nafaqat ta’limda texnologik in-qilobga asos soldi, balki yangi fan-pedagogik texnologiya (PT)ning maz-mun-mohiyati, predmeti, konsepsiyalari, ta’riflari, tuzilishi, paradigma-lari, konnotatsiyalari va rivojlanish manbalari haqida ko‘plab munoza-ralarga sabab bo‘ldi.

Bu munozaralar asosida PT muammolari bo‘yicha nashr etilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar, shu jumladan, 20 dan ortiq maxsus jurnal (British Jo-urnal of Educational Technology, UK; Educational Technology, USA, Japan, Italy; Educational Communication and Technology, USA; Jour-nal of Educational Technology terms,

USA; Media and Methods, USA; PLET (since 1989- ETTI), UK; School Technology, UK; Teachtrends, USA; The Computing Teacher, USA: The Technology Teacher)da ba-yon etilgan g'oyalar, shuningdek, 60-yillarda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda yaratilgan PT inf-ratuzilmasi haqidagi mulohazalar yotadi. PT infratuzilmasi mahalliy shart-sharoitlar e'tiborga olib tashkil etilgan PT markazlari tarmog'ini, PT bo'yicha milliy va xalqaro markazlarni, PT uyushmalari va institutlarini (ular-da maxsus dasturlar asosida kasbiy mahorati yuksak pedagog-texnolog-lar jadal sur'atlar bilan tayyorlanmoqda) qamrab oladi. Yuqorida ko'r-satib o'tilgan dasturlarni faol ishlab chiqish natijasida PT tushunchalari ma'nosini aniqlashtirish jarayoni tezlashib ketdi. 70-80-yillarda chop etilgan deyarli barcha pedagogik ensiklopediyalarga, shuningdek, bosh-qa nashrlarga PT haqidagi ko'plab maqolalar kiritildi. Albatta, bunga bog'liq holda "pedagogik texnologiya" tushunchasini tadrijiy takomiliga qiziqish ham ortdi. Uni tahlil etish esa ta'limdagi texnologik tendensiya-larni oldindan aytish imkonini beradi.

Xo'sh, PT rivojlanishining asosiy belgisini nimada kuzatish mumkin? Eng avvalo, biz buni "ta'limdagi texnologiya" (technology in education) iborasining "ta'lim texnologiyasi" (technology of education), keyin esa, pedagogik texnologiya (educational technology) tarzida o'zgarishi yoki ifodalanishida kuzatishimiz mumkin. Bu pedagogik atama mazmunining o'zgarishi taxminan uch davrni o'z ichiga oladi.

Birinchi davr (50-yillarning boshi va o'rtalari) ta'lim muassasalarida axborotlarni taqdim etishning texnik vositalari –tovushni yozib olish va qayta eshittirish, tasvirlarni aks ettirish vositalari, boshqacha aytganda, "audiovizual vositalar"ning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi davr (50-60-yillarning o'rtalari) o'qitish jarayoniga texno-logik yondashuvning tatbiq etilishi bilan xarakterlanadi. Bu yondashuv-ning nazariy asosi dasturli o'qitish g'oyasi hisoblanadi. Uning texnolo-gik asosini o'quv maqsadlari uchun maxsus mo'ljallangan audiovizual vo-sitalar (teskari bog'lanish vositalari, elektron sinflar, o'qitish mashinalari, lin-gafon xonalar, trenajyorlar va boshqalar) tashkil etadi. Bu davrda "ta'lim texnologiyasi" deyilganda muqarrar

ravishda oldindan rejalashtirilgan na-tijaga olib keluvchi pedagogik jarayonning ilmiy tavsifi (vosita va usullar majmuyi) tushunila boshlandi.

Uchinchi davr (70-yillar) PT bazasining kengayishi bilan xarakterlanadi. PT asosini yaratishda informatika, telekommunikatsiya nazariyasi, pedagogik kvalimetriya, tizimli tahlil va pedagogika fanlari yutuqlari (o'qitish texnologiyasi, bilish faoliyatini boshqarish nazariyasi, o'quv jarayonini optimallashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish)ga tayanildi. PTning metodologik asosi o'zgardi, og'zaki o'qitish-dan audiovizual o'qitishga o'tildi. Kasbiy mahorati yuksak pedagog-texnologlar tayyorlandi. Pedagog-texnologlarni tayyorlash davomida yangi audiovizual vositalar, masalan, videomagnitafon, karuselli kadroproyektor, poleekran, elektron doska, elektron sxemalar tizimi, flomaster bilan yo-zish uchun bloknot doska, tovush va tasvir sinxronizatorlari va boshqa texnik vositalar ommaviy tarzda ishlab chiqila boshlandi. Bu davrda o'quv jarayoni texnologiyasi tizimli yondashuv asosida yaratila boshlandi. Tadqiqotchilar PT o'quv jarayonini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida optimallashtirish tamoyillarini o'rganish, ishlab chiqish va amalda qo'llash tarzida tushundi.

Ushbu jarayonning xarakterli xususiyati kompyuter laboratoriyasi va displey sinflarini yaratish, pedagogik dasturiy vositalar soni va sifati-ning ortishi, interfaol video tizimlaridan foydalanish bilan belgilanadi.

PT mazmuni o'zgarishini shartli ravishda davrlarga ajratish PT ri-vojlantirish tarixining ma'lum bosqichlariga uzviy bog'liq.

1946-yilda AQShning Indiana shtatidagi universitetga audiovizual ta'lim kiritilgan (muallif L.K. Larson).

1954-yilda dasturli o'qitish rejasi asoslab berilgan (muallif – profesor B.F. Skinner).

1961-yil Janubiy Kaliforniya universitetida o'qitish texnologiyasi bo'limi ochilgan (bo'lim rahbari – D.D. Finn).

1968-yil LOGO dasturlashtirish tili ishlab chiqilgan va ta'lim muassasasida tatbiq etilgan (AQShdagi Massachusetts texnologik instituti, rahbar – S.Peypert).

1976-yil birinchi shaxsiy kompyuter “Apple” yaratildi (mualliflar-S.Jobs, S.Uoznik).

1991-yil. Displeyli sinflarda o‘quv maqsadlari uchun maxsus dasturiy vositalardan foydalanilgan.

1990-yil. Ta’limda interaktiv texnologiyalar qo‘llanilgan.

PT mohiyati haqida kamida yarim asr davom etgan ilmiy munozaralar mazmuni turli mualliflar, pedagogik komissiyalar va uyushmalarning ta’rif tavsiflarida o‘z aksini topdi. PT mohiyati haqida bir-biriga qarama-qarshi ikki nuqtayi nazar mavjud. Munozaraning asosiy sababi ham xud-di ana shunda. Barcha mualliflar PTni o‘qitishning zamonaviy vositalari majmuasi deb hisoblashsa, boshqalari esa uni kommunikatsiya jarayoni, deb e’lon qildilar. Ayrim guruhdagi mualliflar o‘qitish vositalari va ja-rayonini PT tushunchasida birlashtirib, ularga bir butunlikda qaraydi.

London universitetida tashkil etilgan audiovizual markaz direktori M.Klark PTning dastlabki ma’nosini quyidagicha izohlagan: “PT-ta’lim sohasida ixtirolar, sanoat buyumlari va hozirgi zamon texnologiyasining asosiy qismi hisoblanmish jarayonlarni qo‘llash”. Ushbu ta’rif “ta’limda texnologiya” atamasini zamonaviy nuqtayi nazardan tushunishni ifoda etadi. Chunki bunda uning ma’nosi o‘qitishda qo‘llaniladigan nopedago-gik buyumlar va jarayonlar sifatida talqin etiladi.

F.Persival va G.Ellingtonning e’tiroficha, “ta’limda texnologiya” atamasi axbortni taqdim etishning har qanday vositasini qamrab oladi. Bular “ta’lim tizimida qo‘llaniladigan jihozlar, masalan, televideniye, til o‘rgatish laboratoriyalari va tasvirlarni aks ettiruvchi turli vositalardir.

Boshqacha aytganda, “ta’limda texnologiya – bu audiovizual vosita-lar” (Persival F., Ellihgton H. A handbook of Educational Technology, London: Kogon page Ltd, 1984, p. 12). Bu ta’rifda “ta’limda texnologi-ya” dan ko‘proq “ta’lim texnologiyasi”ga urg‘u beriladi, chunki u o‘zi-da o‘quv jarayonini ta’minlash uchun maxsus yaratilgan va moslash-tirilgan vositalar (televideniye, til o‘rgatish laboratoriyasi)ni hamda ularni amalda qo‘llash metodikasini birlashtiradi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyasi tarkibiga qattiq (hardware) va yum-shoq (software) vositalardan tashqari yana “sezilmagan” (intangible) aspekt-lar kiradi.

Ularga bilimlarning turli tarmoqlari, masalan, psixologiya, sotsio-logiya, kasbiy menejment va tizimli tahlilga oid g'oya va tajribalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda bilimlar va o'qitish tizimini optimal o'z-lashtirish metodikasini ishlab chiqish uchun texnikaning optika, reprogra-fiya, akustika va mikroelektronika tarmoqlaridan foydalaniladi. Yuqorida qayd etilgan aspektlarda qattiq (proyektorlar, magnitofonlar, televizorlar, mikrokompyuterlar) va yumshoq vositalar (slaydlar, depozitivlar, magnito-fonlar, videoyozuvlar, kompyuter dasturlari)ga qarama-qarshi o'laroq, bosh-qa "tegishli vositalar" (inderware) ham ta'riflanadi.

Ushbu yondashuvni asoslab (uni ko'p aspektli yondashuv deb atash mumkin), D.Finn quyidagi fikrni bayon etadi: "Faqat sodda odamlargina texnologiyani apparaturalar va o'quv materiallarining shunchaki majmu-yidan iborat, deb tushunishi mumkin. Ammo texnologiya juda keng ma'noga ega. Texnologiya bu – o'quv jarayonini tashkil etish usullari, ma-teriallar, odamlar, muassasalar, "inson mashina" tipidagi modellar va tizimlar haqidagi fikrlar timsoli. Texnologiya – muammoning iqtisodiy imkoniyatlarini tekshirish. Bundan tashqari, texnologiya fan, san'at va insoniy qadriyatlarning o'zaro ta'siriga ham daxldor". U yana "Pedago-gik vositalar, kommunikatsiya va texnologiyalar ensiklopediyasi"da (London, 1978) shunday so'zlarni yozadi: pedagogik texnologiya iborasi "o'qi-tish vositalari" atamasiga sinonim emas. Pedagogik texnologiya fanlar-aro birikish (konglomerat) hisoblanadi. U ta'limning deyarli barcha as-pektlari, ya'ni qisqa o'qitish kursidan tortib, to milliy ta'lim tizimining keng qamrovli vazifalari bilan uzviy bog'liq". Muallif pedagogik texno-logiya haqida juda ko'p fikr-mulohazalar bildirilgan bo'lsa-da, lekin PT atamasining ma'nosiga juda kam e'tibor berilganini, uning chuqur tahlil etilmaganini alohida ta'kidlab o'tadi.

Pedagogik texnologiyalar – bu ta'lim samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan hamda pedagogika nazariyasi va amaliyotining barcha sohalari bilan bog'liq bo'lgan o'qitish usullari va vositalari, yondashuv-lar, tizimlar, konsepsiyalar, tendensiyalar, g'oyalarning fanlari o'zaro bi-rikishi (konglomerat). Pedagogik texnologiyalar deyarli yarim asr davo-mida tadrijiy ravishda rivojlandi

va o‘zining hozirgi zamon mavqeyiga erishdi. Bu davrlarda o‘qitish turlari “og‘zaki-audiovizual-dasturlash-mul-timedia-gipermedia” ketma-ketligi bo‘ylab almashti.

Pedagogik texnologiyalarning e‘tirof etilish davrlarini uch bosqich-ga ajratish mumkin.

Birinchisi – pedagogik texnologiyalarni o‘rganish obyekti sifatida e‘tirof etilishi. 1946-yilda AQShning Indiana universitetida audiovizual ta‘lim rejasi kiritildi (muallif L.Larson). Bu ta‘lim maskanida 30-yil-lardayoq talabalarga pedagogik texnologiya bo‘yicha saboq berila bosh-langan edi. Lekin bu vaqtgacha pedagogik texnologiyani joriy etish bo‘-yicha birorta ham mukammal dastur ishlab chiqilmagandi. L.Larson bi-rinchi marta mutaxassislar tayyorlashning audiovizual rejasini kiritdi. Indiana universitetida kiritilgan audiovizual reja hamda Shimoliy Ame-rikadagi boshqa universitetlarda kiritilgan kurslar mazmunida ishlab chiqarishni rivojlantirish, audiovizual vositalarni qo‘llagan holda o‘quv ja-rayonini boshqarish va boshqa masalalar aks etgan (Ely D.P. Educational: Field of study. In: International Encyclopedia of Educational, v.1-10, v. 3. Oxsford : Pergamon press, 1985. p. 1616).

Ikkinchisi – pedagogik texnologiyalarning kasbiy kategoriya sifatida e‘tirof etilishi. 1954-yilda dasturli o‘qitish g‘oyasi asoslab berildi (mual-lif- B.F. Skinner) va bu hol pedagogik texnologiyadagi ustuvorliklarning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Uning asosida o‘zgarishni “stimul – reaksiya” sxemasi bo‘yicha mustahkamlash konsepsiyasi yotadi.

B.F. Skinner tomonidan ishlab chiqilgan dasturli o‘qitish (DO‘) mo-delida o‘qituvchiga bosqichma-bosqich o‘qitishning chiziqli texnologiyasi (mavzu-qadamlar – kadrlar) taklif etildi. Bunda teskari bog‘lanish, ya’ni joriy etilgan topshiriqlarning to‘g‘riligini tezda nazorat qilish va xatoga yo‘l qo‘yilgan hollarda avvalgi qadamga qaytish nazarda tutiladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan davrda DO‘ g‘oyasi pedagog-texnolog-lar tayyorlashning ko‘plab rejalarini qamrab oldi. Ammo “o‘qitish tex-nologiyasi” atamasining muallifi, shubhasiz, D.D. Finn bo‘lib qoldi. U 1963-yilda Janubiy Kaliforniya universitetida “O‘qitish texnologiyasi” bo‘limini tashkil etdi.

1958-yilda DO‘ texnologiyasini N.Krauder yanada takomillashtirdi. U DO‘ ning tarmoqlangan sxemasini taklif etdi. Bunda taklif etilgan ko‘plab javoblardan tegishlilari tanlanadi va javoblarning to‘g‘ri-no-to‘g‘ri tanlanganiga bog‘liq ravishda teskari bog‘lanish amalga oshirila-di. Shunday qilib, DO‘ning yangi modeli moslashuv modeli bo‘ldi.

“Texnologiya” tushunchasining ikki jihati mavjud: nazariy va amaliy. Birinchisida materiallarni qayta o‘zgartirish jarayonlarining ilmiy tavsifi, ikkinchisida muayyan amallarni joriy etish usul va malakalari majmuyi qarab o‘tiladi. Nazariy texnologiyaning asosiy muammosi, -deb ta’kidlaydi A.D. Bondarenko,- “inson-tabiat” tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq. Uning mazmuni shundan iboratki, yaqin istiqbolda (50-100 yillarda) insoniyat sivilizatsiyasining eng maqbul tarzda rivojlanish strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim”.

“Pedagogik texnologiya konsepsiyasi: o‘z-o‘zi bilan muloqot” (Lon-don, 1970) nomli monografiyada texnologiya yoki amaliy fanni o‘rga-nish borgan sari zaruratga aylanayotgani haqida yoziladi. Buning esa, birinchi sababi: texnologik jamiyatning vujudga kelishi...(buning poli-texnik ta’lim konsepsiyasida aks etgani ayni haqiqatdir). Ikkinchi sababi: agar biz texnologiya mohiyatini tushunmasak, tevarak-atrofni qanday bo‘l-sa, shundayligicha qabul qilmasak, u holda ko‘pgina kishilar bu jarayon-da ishtirok eta olmaydi. Uchinchi sababi: fanlar va tamoyillarni o‘rgan-gan “sof” olimlar (kollej va universitet bitiruvchilari) sotsiologiyaga qara-ganda ko‘proq psixologiya bilan amaliy ish ko‘rganlar va shuning uchun ham oliy o‘quv yurtini tamomlaganlaridan keyin ham o‘qish-izlanishda va kasbiy tayyorgarlik ko‘rishda davom etadilar.

Ehtimol, – deb so‘zini davom ettiradi D.Peterson, – amaliy yonda-shuv yordamida ko‘plab o‘quvchi-talabalarning ilmiy mashg‘ulotlarga qiziqishi ortadi, ammo ular ilmiy xodim yoki texnolog bo‘lmasligi mum-kin. Har qalay, ular sivilizatsiyamizning texnologik bazasi haqida bilim olishgani ma’qul. Bu ular uchun ushbu texnologiyaga asoslangan ilmiy nazariyani bilishdan ko‘ra muhimroqdir.

K.Richmond ham bu borada, o'z mulohazasini bildiradi: “bizning jamiyatimiz texnologik jamiyat va undagi ta'lim ijtimoiy jarayon hisob-lanadi, Bundan kelib chiqadiki, texnologiyani o'rganish borgan sari za-ruratga aylanadi... Siz bu da'vomizni qabul qila olasizmi? Pedagogik tex-nologiyalar bilan texnologik pedagogika o'rtasiga chiziq tortish mumkinmi?”

Ta'lim oluvchining o'qishga kirishi va uning bitirishigacha bo'lgan yo'l (davr)da pedagogik tizim asosida strategik qarorlarning ikki bloki joriy etiladi: didaktik masalalar bloki (unga pedagogik tizimning dast-labki uch elementi kiradi) va o'qitish texnologiyasi bloki (pedagogik ti-zimning qolgan uch elementini qamrab oladi). “Didaktik masalalar tuzil-masida maqsad aks etib, – deb so'zini davom ettiradi muallif, – unga eri-shish vaziyatga va faoliyat uchun zarur bo'lgan mavjud axborotga bog'-liq. Har bir didaktik masala o'qitishning ayni bir xil texnologiyasi yor-damida hal etiladi. Qayd etib o'tish joizki, pedagog va metodistlar di-daktik masalalarni maqbul tarzda qo'yishni va o'qitishning xuddi ana shu “ayni bir xil” texnologiyasini ishlab chiqishni o'rganmadilar. Bu bo-radagi ishlarda hali ko'p tartibsizliklar mavjud.

ZPTni shakllantirish borasida Rossiya pedagogikasining orqada qo-lishiga asosiy sabablardan biri “ilmiy qoidalarni bayon etishning tavsif-chilik usuli”dir. Shuning uchun ham, amalda ish beradigan konsepsiya-lar yaratilmaydi. V.P. Besalkoning ta'kidlashicha, ta'lim konsepsiyasi mavjud, ammo uni aniqlashning ilmiy asoslangan metodikasi yo'q; pe-dagogik tizim tushunchasi bu qiyinchilikni bartaraf etishga xizmat qila-di, chunki pedagogik tizim mohiyatini elementlar asosida tavsiflash or-qali ta'limning umumiy konsepsiyasi ifoda etiladi. Bu konsepsiya esa PTga aylanadi. Birinchisi bo'lmasa, ikkinchisi ham yo'q.

1. Muallif-tadqiqotchilar amalda erishgan natijalarning, taklif etila-yotgan pedagogik tizimning qayta tiklanuvchanligi, ya'ni qo'yilgan maqsadga muvofiq holda har qanday pedagogning o'qitish texnologiyasini amalda joriy eta olishi va natijaga erishishi. Afsuski, hozircha bunday ho-latga erishilganicha yo'q. Bu borada mustaqil ish olib borayotgan va muvaf-faqiyatga erishayotgan rus olimlarining nomini tilga olib o'tish mumkin. Bular: Sh.A. Amonashvili, S.N. Lisenkova, Z.F. Shatalov va

boshqalar. Shuningdek, A.S. Makarenko va V.A. Suxomlinskiyning ishlarini ham eslab o'tish joiz. Ammo ular faoliyat ko'rsatgan pedagogik tizimlar individual texnologiya edi.

2. Barcha pedagoglar uchun tushunarli bo'lgan pedagogik san'at va mahorat haqidagi ilmiy bilimni joriy etuvchi pedagogik mahsulotlarning raqobatbardoshligi. Ayni holda ZPT bu – o'quv-tarbiya jarayonida qo'llani-layotgan metodlar to'plami, usullar va vositalar majmuyi hamda foydala-nuvchilarga pedagogik xizmatlar bozorida tovar sifatida taqdim etilayotgan xizmatlar. ZPTning noraqobatbardoshligiga P.Ya. Galperinning aqliy fao-liyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi misol bo'la oladi. Chunki bu metod pedagogik xizmatlar bozorida tovar darajasiga yetkazi-ladi. Ammo Gollandiyada bu nazariya ZPT (tovar) darajasiga yetkazil-madi va ta'lim muassasalari rahbarlariga sotilmoqda.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kapital hajmi. Xorijiy mamlakatlarda yaratilgan pedagogik texnologiyalarni sotib olish mamla-kat iqtisodiga zarar keltiruvchi qator muammolarni, ya'ni texnologik bog'liqlik, urbanizatsiyaning jadallashuvi, ijtimoiy taranglik, madaniy bog'liqlikni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin (jumladan, madaniyatni eksport qilish, zaxira qismlari monopoliyasiga bog'liqlik, uy-joyga xiz-mat ko'rsatish, suv bilan ta'minlash, sanitariya va gigiyena, kommuni-katsiya va ta'lim olish uchun xizmat ko'rsatish baholarining ortishi). Shu-ningdek, ekologik muammolar, hayot tarzi, xulq-atvor me'yorlari, ijtimoiy holatlar, dunyoqarash borasida o'zgarishlar kuzatiladi. Xorijiy mamla-katlar texnologiyalarini qo'lga kiritish oqibatida yuzaga keladigan noteng munosabatlar “aks sadosi” ana shulardan iborat bo'lishi mumkin.

4. Rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi amallarni izchil bajarish uchun ko'rsatmalarning qisqa va qulay bo'lishi. Algoritmdan farqli o'la-roq texnologiya “ha-yo'q”, “yoki”, “agar” tipidagi tizimni qamrab ol-maydi. Texnologiya – jamiyat ehtiyojlariga mos maqsadga olib keluvchi (odatda, 4, 5 ta) eng maqbul yo'riqnomalar¹.

Боголюбов В.И. Эволюция педагогических технологии. «Школьные технологии», 2004, №4; Tojiyev D.; Toshpo'latov U. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi. // Kasb-hunar ta'limi, 2005 , 2-son, 17-23 betlar.

Xullas, pedagogik texnologiyalarning fan sifatidagi mohiyati, vazifasi, unga asoslanib dars jarayonini tashkil etish haqida kamida yarim asr davomida ilmiy munozaralar olib borilyapti. Bu munozaralarning mazmuni, natijasi o'laroq bir guruh mualliflar pedagogik texnologiyalarni o'qi-tishning zamonaviy vositalari majmuasi deb hisoblashsa, boshqalari esa kommunikatsiya jarayoni, uchinchi guruhdagilar o'qitish jarayoni va vositalarning bir butunligi deb qarashadi. Hozirgi paytda ham zamonaviy pedagogik texnologiya haqidagi munozaralar davom etmoqda.

1-bob bo'yicha xulosa.

Tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalar tatbiq etilishining mavjud axvolini o'rganish, eng avvalo, tadqiq etilayotgan muammoning dolzarbligini asoslash, tadqiqot doirasida amalga oshirilishi nazarda tutilayotgan tajriba-sinov ishlarining mazmunini ishlab chiqish qamda yo'nalishini belgilash imkonini yaratadi. Shunga ko'ra tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida muammoning mazkur jihatini o'rganishga aloqida aqamiyat qaratdik.

Loyixalarni ishlab chiqish shaxsiy, individuallik xususiyatiga ega bo'lib, uni qar bir pedagog mustaqil ravishda, bilim darajasi, kasb maqorati, shuningdek, ijodiy qobiliyatiga tayangan xolda asosida yaratishi talab etiladi. Biroq ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish tajribasiga ega bo'lmagan pedagoglar bu borada ma'lum qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Binobarin, ta'lim-tarbiya jarayonining yagona, yetakchi maqsadini belgilash u qadar murakkab bo'lmasada, xususiy, juz'iy maqsadlarni aniqlash, ularning birlari bilan aloqadorligini ta'minlash, yetakchi maqsadga erishishiga yo'naltirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini avvaldan tashqislash, ular faoliyatini muntazam, izchil, uzluksiz nazorat qilish va uni to'g'ri baxolash imkonini beradigan shaql metod, vosita va usullarni tanlay olish bir qadar murakkab jarayon xisoblanadi.

II.Bob.O‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.

2.1.Boshlang‘ich sinflarda pedagogik texnologiya elementlarini qo‘llashning afzalliklari.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining»Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»talablarini rubejga chikarish kup jixatdan ta‘limga erkinlik berish va davr bilan xamnafas rivojlantirishni talab etadi. Ba’zi mamlakatlarning ta‘lim soxasida to‘plangan ilg‘or tajribalari taqlilidan ayon bo‘ldiki, shaxsning intellektual saloqiyati, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy kiyofasining shaqllanishida u mansub bo‘lgan muxit, unda qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning aqamiyati katta ekan. Zero, ushbu jamiyatda uning tafakkuri, ma’naviy-axloqiy qiyofasini shaqllantirishi uchun zarur bo‘lgan ob’ektiv va sub’ektiv omillar mavjud. Rivojlanayotgan O‘zbekiston jamiyatida ta‘lim muassasalari, shu jumladan, boshlang‘ich sinf darslarining qam aloqida o‘ringa ega. Zero, muayyan kasb-qunar asoslaridan yosh avlodni xabardor etish ularni mustaqil qayotga tayyorlash uchun muqim aqamiyat kasb etadi. Ma’lum kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish shaxsning moddiy eqtiyojlarini ta’minlash uchungina emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi uchun qam muqim aqamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash Milliy modelining mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoniga samarali tatbiq etilishi xalq xo‘jaligidagi ishlab chiqarish ob’ektlari, ilmiy qamda o‘quv muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlash imkonini beradi. Mazkur masalaning dolzarbligi xususida to‘xtalar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etib o‘tadi: «O‘zbekiston innovatsion rivojlanish turining qozirgi zamon modeliga o‘tishi uchun qamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy saloqiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko‘paytirishga asoslanadi. Bu - mamlakatimiz

jaqondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustaqkam poydevori bo'lib xizmat qiladi».

Jamiyat ehtiyojlari asosida shaqllantirilayotgan barkamol avlod va malakali mutaxassisning rivojlanishini ta'minlashda boshlang'ich sinf darslarining o'rni beqiyos ekanligi davlat siyosati darajasida e'tirof etilmoqda. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi qududida sanoat, savdo, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish, transport, aqoliga maishiy xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida mutaxassis tayyorlaydigan boshlang'ich sinf darslari qurilib, ularda muayyan maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa, xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan ko'plab kollejlarning qurilishi davom ettirilmoqda. 3-4005 yilga qadar O'zbekiston Respublikasining viloyat, tuman, shaqar qamda qishloq qududlarida ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va aqoli, shuningdek, xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan ichki ehtiyojlarini inobatga olgan qolda muayyan yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatuvchi yangi turdagi o'quv muassasalarini joylashtirish, ularning faoliyatini moddiy-moliyaviy jiqatdan qo'llab-quvvatlash, ilmiy-metodik ta'minlash ko'zda tutilgan.

boshlang'ich sinf darslarini ukitishning interfaol metodlari asosida tashkil etish-ularda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar qal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir:

- boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish;

- boshlang'ich sinf meqnat ta'limi darslari pedagog xodimlari o'rtasida yangi pedagogik texnologiyalar moqiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish;

- ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirilishiga erishish;

- boshlang'ich sinf darslari pedagoglarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv qissini tarbiyalash;

- boshlang'ich sinf darslarining o'qituvchilarida texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini qosil qilish;

- boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilari tomonidan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishiga erishish;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologik asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi maqoratlarni oshirish;

- boshlang'ich sinf darslarining samaradorligini ta'minlash.

boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilari o'rtasida yangi pedagogik texnologiyalar va ularning moqiyati xususidagi nazariy ma'lumotlarni targ'ib etish muvaffaqiyatini pedagogik jamoa, shuningdek, individual pedagog xodimlarda ularni o'rganishga nisbatan eqtiyoj, qiziqishning yuzaga kelishini belgilaydi. Yuzaga kelgan eqtiyoj qamda qiziqish ularni qondirish imkonini beruvchi amaliy faoliyatni tashkil etishga nisbatan qaror toptiradi.

Rag'bat esa, o'z navbatida, amaliy qarakatning tashkil etilishiga turtki beradi. Dastlab mashqlarni qal etish asosida tashkil etilayotgan qarakatlar pedagog xodimlarda o'z faoliyatlarini texnologik g'oyalarga muvofiq yo'lga qo'yish bo'yicha muayyan ko'nikmalarning yuzaga kelishiga zamin qoziraydi. Doimiy ravishda mashqlantirish, faoliyatni bir maromda tashkil etilishi, vaqt o'tishi bilan uning sur'atini oshirishga erishish qosil bo'lgan ko'nikmalarni malakalarga aylantiradi. Amaliy ko'nikma va malakalarning nazariy bilimlar bilan uyg'unligini ta'minlash esa pedagogik faoliyatni texnologik yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha ma'lum tajribani shaqllantiradi. Ana shu sharoitdagina yangicha yondashuvga asoslangan amaliy faoliyatni uzluksiz, izchil tashkil etish uchun imkon tug'iladi. Mazkur faoliyatning qay darajada samarali bo'layotganligini aniqlash maqsadida izchil tarzda maxsus taqlil o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarida pedagogik faoliyatni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish malakasini shaqllantirishga quyidagi tamoyillarga amal qilish asosida erishiladi:

1. Boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasidagi yagona maqsadning qaror topganligi.

2. Boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasidagi qarakatning izchil, maqsadga muvofiq, tizimli va uzluksiz amalga oshirilishi.

3. Boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda mavjud shart-sharoit qamda sub'ektiv yondashuvlarni inobatga olish.

4. Pedagogik maqorat va iqtidorlarni erkin namoyish etish.

5. Yangi tajribalarni ommalashtirish.

6. Nazariy va amaliy faoliyat birligi.

7. boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda xorijiy mamlakatlarning donor tashkilotlari bilan qamkorlik va qokazolar.

boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

1) ob'ektiv omillar:

- boshlang'ich sinf darslarida moddiy-texnik bazaning yaratilganligi;

- ta'lim- tarbiya jarayonining zarur texnik qamda axborotli vositalar bilan ta'minlanganligi;

- boshlang'ich sinf darslarida pedagogik monitoring (ma'lumotlar banki)ning tashkil etilganligi, uning maxsus adabiyotlar bilan boyitilganligi;

2) sub'ektiv omillar:

- boshlang'ich sinf limi darslarining o'qituvchilarida PT moqiyatini o'rganishga nisbatan ichki eqtiyoj va qiziqishning yuzaga kelganligi;

- ularda o'z faoliyatlarida PT lardan foydalanishga nisbatan rag'batning qaror topganligi;

- boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarining PT moqiyatidan xabardorliklari;

- ularda o'z faoliyatlarini texnologik yondashuv asosida tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarning tarkib topganligi;

- boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarining o'z pedagogik faoliyatlarida PT ni qo'llay olish maqoratiga egaliklari;

- ularda ijodkorlik, izlanuvchanlik, boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida ko'tarinki kayfiyatni yarata olish sifatlarining mavjudligi;

- PT asosida pedagogik faoliyatni tashkil etayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirib borish va qokazolar.

boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasidagi maqoratlari darajasi quyidagi ko'rsatgichlarga muvofiq belgilanadi:

- boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilari tomonidan yangi pedagogik texnologiya nazariyasi, uning moqiyati, ta'lim-tarbiya jarayonini loyiqalash, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini oldindan tashqislash, ular tomonidan tashkil etilayotgan o'quv faoliyati mazmunini nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baqolash, pedagogik faoliyat samaradorligini aniqlash borasidagi nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi;

- boshlang'ich sinf meqnat ta'limi darslari o'qituvchilarida texnik vositalar qamda axborot texnologiyalari xizmatidan samarali foydalanish borasida qosil bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalar;

- boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muloqotni muvaffaqiyatli tashkil etish, pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy yondoshuv, pedagogik vaziyatlarni baqolay olish va ularga muvofiq xatti-qarakatni tashkil etish malakalari shaqllanganligi;

- pedagogik faoliyat mazmuni, ko'lami, sur'ati qamda samaradorliginining yuqori darajasi.

Tadqiqot muammosini nazariy-amaliy asoslarini o'rganish natijasida shu qolat aniqlandiki, pedagogik texnologiyalar moqiyatini boshlang'ich sinf darslari

pedagoglari o'rtasida targ'ib qilish jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarga nisbatan tabiiy fanlar o'qituvchilari mazkur pedagogik texnologiyalarning nazariy-amaliy asoslarini tez va puxta o'zlashtirishga muvaffaq bo'lganlar. Buning boisi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorlik drajasini aniqlashga yo'naltirilgan metodlarning statistik xususiyatga egaligidadir.

Tabiiy fanlar o'qituvchilarining texnik va axborot vositalari bilan ishlay olish tajribasi va mutaxassislik ma'lumotlariga ega ekanliklari ularni yangi pedagogik texnologiyalar borasidagi bilimlardan xabardor etish jarayonida ma'lum qulayliklarni yaratdi. boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish jarayonidagi imkoniyatlar va tajribalarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Xususan, o'quv fanlari bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlarning loyiqasini ishlab chiqish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlarini nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baqolash qamda darslarining samaradorligini aniqlashga imkon beruvchi dasturlarni tuzishda tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'rni beqiyosdir.

boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda umumjamoa, shuningdek, qar bir o'quv fani o'qituvchisining imkoniyatlaridan samarali foydalana olish, muqim aqamiyatga ega. Buning uchun qar bir fan o'qituvchisi o'quv yurti manfaatlarini shaxsiy qiziqishlari bilan muvofiqlashtira olishi, ayni vaqtda boshlang'ich sinf darslari raqbariyati o'quv yurti o'qituvchilarining faoliyati pedagogik texnologiyalarga nisbatan e'tiborli bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. O'quv yurti raqbariyati qamda jamoa o'rtasidagi yakdillik, yagona maqsad sari intilish boshlang'ich sinf meqnat ta'limi darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish yo'lida ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlaydi.

boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini ishlab chiqish muammoning ijobiy yechimini ta'minlaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni boshlang'ich sinf darslarining tarkibiy qismi qisoblanib, mazkur jarayonga qam pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish yetuk mutaxassis sifatida tayyorlanishi nazarda tutilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishishlari uchun sharoit yaratilishini ta'minlaydi. Biroq bunday sharoitning vujudga kelishi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy sub'ekti va raqbari bo'lgan o'qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyalar moqiyatini anglash, ulardan pedagogik faoliyatni amalga oshirishda samarali foydalanish borasidagi ko'nikmalarni qosil qilish lozim. Shuning uchun qam tajriba-sinov ishlari jarayonida boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilari orasida o'quv faoliyatida amalga oshiriladigan tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga yo'naltirilgan tadbirlarning o'rin olishiga aloqida e'tibor berdik.

Tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish - boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvdan iborat bo'lib, mazkur ishlar mazmunini shaqllantirish birqadar murakkab jarayondir. boshlang'ich sinfmeqnat ta'limi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga muayyan o'quv fani to'g'risida ma'lumotlarni berishda vaqt qajmi qat'iy belgilab qo'yilgan, bunday qolat o'quv faoliyatini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni birqadar barqarorlashtirishga imkon bersa, tarbiya jarayoniga nisbatan bunga erishish murakkabroqdir. boshlang'ich sinf o'quvchilarida bir qator shaxsiy sifatlar shaqllantiriladi. Ularni boyitish esa shaxs tarbiyasini uzluksiz davom ettirishni talab qiladi. Bunda bevosita o'quv jarayoni qamda auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlardan samarali foydalanish talab etiladi.

boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad - tarbiya jarayonining asosiy sub'ektlari bo'lgan o'qituvchi qamda o'quvchilar o'rtasida yuzaga keluvchi muloqotning samarali bo'lishi bu tizimning yangicha mazmun kasb etishiga erishishdan iborat. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlaridan boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish,

bu borada aqamiyat berilishi lozim bo'lgan shartlar xususida o'qituvchilarni xabardor etishga yordam beradigan tadbirlarning o'rin olishiga aloqida e'tibor berildi. Mazkur tadbirlar vositasida quyidagi pedagogik vazifalarning ijobiy qal etilishi nazarda tutildi:

1. Boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarining tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasidagi nazariy-amaliy bilimlarini o'zlashtirishlari uchun muayyan shart-sharoit yaratish.

2. Boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilariga tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va uning o'ziga xos jihatlarini xususida ma'lumot berish.

3. Boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarida tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasidagi nazariy bilimlarni qosil qilish.

4. Boshlang'ich sinf ta'limi darslari o'qituvchilarida pedagogik texnologiyalar asosida tarbiya jarayonini tashkil etish borasidagi nazariy bilimlarining amaliy ko'nikma va malakaga aylanishiga erishish.

5. boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarida tarbiya jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishga nisbatan rag'batni yuzaga keltirish.

6. boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarida tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvni qaror toptirish, maqoratini oshirish.

7. Pedagogik tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasida Respublika miqyosida, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda to'plangan tajribalardan boshlang'ich sinf meqnat ta'limi darslari o'qituvchilarini xabardor etish.

Boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarida tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvni qaror toptirishga erishish murakkab jarayon bo'lib, ushbu jarayonning samarali kechishi ularning mutaxassislik fanlari asoslarini chuqur o'zlashtirganliklari, fanlararo aloqadorlikni, shuningdek, jamiyat qayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning moqiyati va davr talabini anglay olishlari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tajribasiga egaliklari, tarbiya jarayonini

tashkil etishdan koʻzlangan maqsadning gʻoyaviy jiqlarini taqlil eta olishlariga bogʻliq.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tamoyillarga asoslangan qolda qam maqsadga muvofiqdir:

1. Boshlangʻich sinf darslarida amalga oshiriladigan tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish pedagogik jamoa oldida turgan umumiy maqsad sifatida eʼtirof etilishiga erishish.

2. Boshlangʻich sinf darslarining tarbiyaviy faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasida mavjud imkoniyatlardan foydalanish.

3. Boshlangʻich sinf darslarining tarbiyaviy faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish yoʻlida muayyan shart-sharoitlarni yaratish.

4. Uyushtirilayotgan tadbirlarning gʻoyaviyligini taʼminlash.

5. Tadbirlar gʻoyalarining yagona maqsadga xizmat qilishiga erishish.

6. Tadbirlarni tashkil etishda ularning uzluksiz, tizimli va izchil boʻlishini taʼminlash.

7. Tadbirlar jarayonida qar bir oʻqituvchining ichki imkoniyatlarini inobatga olish, ularning pedagogik tajriba va kasbiy maqoratlariga tayanish.

8. Tadbirlarni uyushtirishda oʻquv yurti faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasida respublika miqyosida, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda qoʻlga kiritilgan tajribalardan foydalanish.

9. Tadbirlarni oʻtkazishdan koʻzlangan maqsadning natijalanishiga erishish.

2.2.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalar.

Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi va bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilab qo'yilgan «O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda ichki insoniy sifatlari barq urib kamolotga yetgan kadrlarni tayyorlash» orqaligina shunday salohiyatga erishish mumkin. Bu maqsadni amalga oshirish uchun ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish zarurligi Milliy dasturda ham, Davlat ta'lim standartlarida ham dolzarb vazifalaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

Dastlab «texnologiya» tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha «texnos»-hunar, san'at va «logos» fan so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi.

Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab bera olmaydi, yoxud texnologik jarayon bu mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish sohasidagi qo'llaniladigan usul va metodlar yig'indisi hisoblanadi. Demak, bu ta'rifni tatqiqot ishimizning mavzusiga ko'chirish mumkin bo'lsa, unda pedagogik texnologiya – o'qitishning yangicha usuli bo'lib, ta'lim va chuqur bilim berishga, ularni mustahkamlashga, o'quvchilar bilimdonligini oshirishga qaratilgan jarayon desak xato bo'lmaydi.

Pedagogik texnologiyaga keng ta'rif berish uchun ilmiy izlanish talab etiladi. Olimlar Sh.Nuriddinov, A.Abdujabborov fikricha, pedagogik texnologiya:

1. O'quv jarayonida yangi metodlarni qo'llash;
2. O'quv materialini yangicha talqin etish;
3. O'qitishda yangi informatsion texnologiyani kiritish jarayonidir.

Yapon olimlari pedagogik texnologiyaga o'qitishni ta'minlovchi oqilona yo'l deb baho bersalar, professor X.Abdukarimov esa bunga «o'qituvchining pedagogik mahorati» deb qaraydi.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda keng qoʻllash zaruriyatini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

1. Jahondagi fan, texnika va madaniyatning tez rivojlanib borishi va uning taʼlim mazmuni kengaytirib, chuqurlashtirib yuborayotganligi;
2. Mamlatimizda taʼlim sohasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Davlat taʼlim standartlarining yaratilishi;
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar boʻyicha koʻp yildan buyon horijiy mamlakatlarda toʻplangan tajribalar va ulardan mamlakatimiz taʼlim muassasalarida foydalanish.

Boshlangʻich sinf darslarida pedagogik texnologiyadan foydalanganda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

a) zamonaviylik – taʼlim-tarbiya amaliyotiga asoslangan tajriba, sinovdan oʻtgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish;

b) taʼlim-tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish, oʻquv dasturlariga befarq boʻlmasdan sinchkovlik bilan oʻrganish:

v) umumiy va milliy qadriyatlash sohasidagi yangi ijodlarini oʻrganib borish;

g) oʻquv jarayonida oʻquvchi bilim oʻqituvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish;

d) ilmiylik-yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, oʻquvchilarni mustaqil fikrlash va oʻzini anglashga oʻrgatish;

s) dars maqsadining aniqligi mazmunining zamonaviyligi, milliy maʼnaviy qadriyatlar bilan boyitilishi:

e) yangi pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun har bir oʻqituvchi nazariy chuqur bilimga ega boʻlishi zarur.[39]

Pedagogik texnologiya tushunchasi yangi tushuncha emas, chunki bu tushunchaning taʼlim-tarbiya jarayonida paydo boʻlganiga 40-50 yildan oshmoqda.

Jumladan, Oʻzbekistonda savod oʻrgatish jarayoni tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, unda pedagogik texnologiya elementlarini uchratish mumkin. Savod oʻrgatish texnologiyasining qadim zamonlardan boshlab Oʻzbekiston

xududida bir necha usullari shakllangan va amalda qo'llanib kelingan. Bu usullarni ta'lim texnologiyasining eng asosiy tarkibiy qismlari sifatida qarash mumkin, chunki savod o'rgatish har qanday ta'limning boshlanishi hisoblanadi va bu jarayon o'ziga xos texnologiyadan iborat.

Alifbe o'rgatish O'zbekistonda turli davrlarida quyidagicha nomlangan usullarida olib borilgan:

Tovush usuli (usuli satviya)-harflarni ovozlar bilan tanitish. Bu usulni qo'llash bilan o'quvchilarda ilmiy bilish metodlari (qiyoslash, ajratib olish, solishtirish, umumlashtirish kabilar)ga xos layoqat va malakalar rivojlanib boradi. M.Behbudiy (1875-1919) turkistonliklar orasida birinchilardan bo'lib savod o'rgatishda yangi usul – tovush usulini amaliyotda qo'lladi.

Tovush usulida jadid maktablari uchun Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) 1907 yilda «Adibi avval» (Birinchi o'qituvchi) alifbo darsligini va «Adabi soniy» (Ikkinchi o'qituvchi) o'qish kitoblarin chop ettirdi.

Maddiya usuli (usuli maddiya (madd-cho'zish)) bu usulda undosh tovushlarning nomi bir-biriga qo'shilmaydi, balki bir undosh tovushning nomiga bir unli tovush qo'shilib, ochiq bo'g'in hosil qilinadi boqaqba, bequqbu kabi. Bu metod quruq yodlash ko'rish xotirasiga asoslanadi. Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» darsligi maddiya usulida yaratilgan.

Butun so'zlar yoki «amriqo» usuli. Bunda darslikning savod o'rgatish davrida Amerika maktablarida XX asr boshlarida o'qitilgani kabi 7-darsgacha so'zlarni bo'g'in va tovushga ajratmay, yaxlit o'qitish, savodga o'rgatishning ilk davrida bolalar yaxshi biladigan hayvon va parrandalar (mushuk, sichqon, to'ti kabilar)ning rasmini ko'rsatib, rasm ostidagi ularning nomlarini o'qitish kabi usullardan foydalaniladi. Bu usulda O'zbekistonda dastlabki alifbe Hasan Ali tomonidan yaratilgan bo'lib, undagi matnlarda quyidagicha o'xshash misollar qo'llanilgan: qator-qator tosh qo'ydim, jayron otni bo'sh qo'ydim (tish va til)

Izohli o'qish usuli – XIX asrning 90 yillarda Toshkent, qo'qon, Samarqand shaharlaridagi yangi usul maktablarida qator dunyoviy fanlar o'qitilishi bilan birga

qo'llanildi. Bunda, asosan, oldin bilimni o'zlashtirishga so'ngra yod olishga e'tibor berilgan.

Imlo usuli – o'qituvchi aytib turganini o'quvchilar yozganlar.(VIII-IX asrlarda)

Tadris usuli – (tadris-sharq, izoh) X asrdan ilgariroq Markaziy Osiyoda tarqalgan.

Demak, pedagogik texnologiya biz uchun ham yangilik emas.

Yuqori biz pedagogik texnologiyani zamonaviy usuli orqali o'quv maqsadlariga garovli erishish mumkin deb baholadik. Xo'sh, maktabdagi o'qitish jarayonining sifati yana qaysi omillarga bog'liq.

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi.

Metod – yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi.[22.105-b]. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. Usul – metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokozolar hisobga olinadi.

Metod va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilinishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda va mazmunini umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Garchi har bir o'qitishning ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsa-da, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim

bo‘lib, birinchidan, o‘quvchilarni ularning e‘tiqodiga, e‘tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o‘qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o‘qish-o‘rganish diqqat e‘tiborni talab qiladigan, murakkab faoliyatdir va unda o‘tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O‘qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib o‘quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularni qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatishdir.

O‘qitish usullariga muayyan talablar qo‘yiladi:

- O‘quv materialini o‘rganishning o‘qituvchi tavsiya etgan yo‘li fikrlashning dialektik-materialistik usuli mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan metod tarbiyaviy tusda bulishi lozim.
- O‘qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo‘lishi zarur. Shundagina o‘qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo‘yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo‘lmasligini ko‘ra oladi.
- O‘qitishning tizimligi uning samaradorligini belgilaydi.
- O‘qitish metodining tushunarililigi o‘qitishning yo‘li o‘quvchi uchun qabul qilinishi va qo‘llanishi, o‘quv materialini o‘rganishning usuli esa bilimlarni o‘zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi zarur.
- O‘qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.
- Bilimlarni puxtaligi va asosligi.
- O‘qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko‘zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo‘yishni, unga erishish bo‘yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning ob‘ektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo‘yilgan maqsad yaroqsizligini, yo bo‘lmasa, bu holatda uni umuman noto‘g‘ri qo‘llanganligini e‘tirof etish lozim.

O‘qitish usullarini quyidagilarga bulish mumkin:

1. Tafakkur, xotira, diqqat va hayolning alohida operatsiyalarni tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;

2. O'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollash-tiradigan usullar;
3. Nazorat va o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat usullari;
4. O'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

Ta'limda interfaol metod – bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirishi, faollashtirish demakdir. Bugun fan, texnika va san'at jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, ijtimoiy holat o'zgarayotgan davrda maktablarda ta'limni xususan, boshlang'ich ta'limni mazmun jihatidan yangicha o'qitish zarurat va zamon talabidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining texnologik tayyorgarligi boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiya elementlaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar quyidagilar:

- Muammoli o'qitish texnologiyasi
- O'yinli texnologiyalar
- Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan texnologiyalar
- Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari
- Modulli texnologiyalar
- O'qitishning tabaqalashtirilgan va induvidual texnologiyasi
- O'qitishning jadallashtirish texnologiyasi
- Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi va bir qancha texnologiyalardir.

Bu texnologiyalarni alohida ko'rib chiqamiz:

O'yinli texnologiyalar

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikdagi faoliyatining asosiy

turlaridan biri hisoblanadi. O‘yinli faoliyat muayyan vazifalarini bajarishiga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish
- davolovchilik
- kommunikativlik
- tashxis
- millatlararo muloqat
- ijtimoyillashuv

O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol harakter «ijod maydoni»ga ega bo‘ladi. Tatqiqotchilar o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar. O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta’lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llaniladi.

O‘yinning didaktik maqsadi–bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka, ko‘nikmalarni qo‘llash, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi-mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma’naviy estetik va dunyoqarashini shakllantirishda hamkorlikni, jamoaga kirib keta olishni, birdamlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadi-diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o‘xshashni topish, xayol, ijodiy qobiliyat, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv maqsadi – jamiyatning me’yorlari va qadriyatlariga jalb qilinishi, ehtirolarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish va muloqatga o‘rgatishni nazarda tutadi.

Pedagogik o‘yinlar asosida o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullarni vujudga keltirish yotadi.

Biz quyida ana shunday interfaol usullarini o‘zida mujassamlashtirilgan o‘yinlarni qanday qilib rejalashtirish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o‘tamiz.

«Maqolarda antonimlar»

Ma'lumki, o'zbek xalq maqollarida antonimlar ko'proq uchraydi. Shu bois bu shartda o'quvchilar navbatma-navbat antonimlar ishtirok etgan maqollaridan aytadilar. Masalan, «yaxshiga yondash, yomondan qoch», «do'st achitib gapirar, dushman kuldirib gapirar», «kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda» va x.k.

«Izohli lug'at»

Buning uchun o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. 1-guruh ishtirokchilari so'z birikmasi, frazeologik birikma yoki tasviriy ifodalarni aytadilar. 2-guruhdagi o'quvchilar esa 1- guruhdagilar aytgan so'z va birikmalar ma'nosini tezkorlik bilan izohlab beradilar. Shartni bajara olmagan guruh mag'lub hisoblanadi. Bu o'yin quyidagicha amalga oshiriladi:

O'zbekning shoh taomi: palov
Ertalabki ovqatlanish: nonushta
Ilonning yog'ini yalagan: ayyor
Dala malikasi: makkajo'xori
Aql gimnastikasi: shaxmat
Tog' malikasi: archa va x.k.

Bu o'yinlarni ona tili darslarida 4-sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunday o'yinlar faqat bir mavzu doirasida cheklanib qolmay bir qancha mavzularda, ko'proq takrorlash darslarida o'tkazilishi mumkin.

O'qish darslarida «Rolli o'yinlar» usulini qo'llash mumkin.

«Rolli o'yinlar» - har bir ishtirokchi o'quvchi biror asardagi qahramon rolini o'ynar ekan, shu persanajni fikrlarini aniq anglashi va o'sha qahramon o'rnida so'zlashi shart. Shu o'yin orqali o'quvchi ma'lum ibrat va xulosalar chiqarishi mumkin.

Demak, interfaol usullarni ona tili va o'qish darslarida qo'llash natijasida o'quvchilar hozirjavoblikka o'rganadi, ularning lug'at oyligi oshadi, ilmiy-nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi. O'yin asosida tashkil qilingan dars albatta, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, qiziqish esa intilishga, bilimlarni puxta o'rganishga olib keladi.

O‘yinli texnologiyalarni amalga oshirish o‘qituvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodlaridan foydalanishni taqozo qiladi. Ijodiy faoliyatning rivojlantirish metodlari G.S. Altshuller, O.G.Bagdanova, A.V.Brushlinskiy, G.Melxorn, B.Mironov, P.Yakobson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodlarni ko‘rib chiqamiz:

«**Aqliy hujum**»-o‘quv metodlarini hal qilishda keng qo‘llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo‘naltirilgan. Mazkur metod o‘quvchi oldiga qo‘yilgan har qanday muammoli masalaga ko‘p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi.

Aqliy hujum foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

- o‘ylash jarayonida hech qanday baholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar bu jarayondagi g‘oyalar baholanadigan bo‘lsa, qatnashchilar moddiy manfaatdorlik yo‘liga tushadilar va o‘z fikr-g‘oyalarini himoya qilishga urg‘u beradilar. Yangi fikrlar, yangicha kashfiyotlar xususida o‘ylamay qo‘yadilar.
- har bir o‘quvchi bitta masala yuzasidan xilma-xil mulohazalar yuritishga yo‘naltiriladi. O‘quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g‘oyalar tug‘ilmasa, qatnashchilar o‘z fikrlarini qayta qo‘llashga, bir-birlarini takrorlashga majbur bo‘ladilar.
- g‘oya va fikrlarning miqdori rag‘batlantiriladi. Ma’lumki, miqdor odatda, o‘sib sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqtordagi g‘oyalar paydo bo‘lganda ularni baholash mumkin. qatnashchilar o‘z tasavvurlariga erk berishga imkoniyat yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g‘oyalar tug‘iladi.
- har bir o‘quvchi o‘zgalar g‘oyasiga asoslanishi va ularni o‘zgaritish mumkin. Chunki fikrdan fikr tug‘iladi, avval taklif etilgan g‘oyalarni biriktirish yoki o‘zgartirish ko‘pincha asos bo‘lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g‘oyalarni keltirib chiqaradi.

Aqiy hujumdan foydalanish shartlari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilar erkin o‘tiradigan qilib joylashtiriladi.

- O'quvchilarning g'oya va fikrlarini yozish uchun varaqlar tayyorlab qo'yiladi.
- Hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi.
- Ish jarayoni belgilab olinib, o'qituvchi «olg'a boring, g'oyalarga asoslaning, qo'ying, kengaytiring, o'zgartiring» kabi luqmalar orqali bahs-munozarani boshqarib turadi.
- qo'yilgan muammo yuzasidan barcha fikrlar tinglanadi va yozib boriladi.
- G'oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi.
- Barcha fikr va g'oyalar tinglangach yangi, kuch asosli va original g'oyalar o'quvchilar tomonidan rag'batlantiriladi.

«Klaster» usuli

Bu usulda biror mavzu yoki matn tanlanib, o'quvchining diqqati aynan shu mavzuga qaratish yuzasidan markazga yoziladi. O'quvchilar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtiradilar (yozadilar). Fikrlar bayon etilgandan so'ng har bir fikr yoki so'zni toifalarga ajratib chiqadilar.

Usulning maqsadi:

- o'quvchilar so'z boyligini oshirish:
- yozma nutqni takomillashtirish:
- fikrlash qobiliyatini shakllantirish:
- toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish.

«Klaster» usuli-bu pedagogik strategiya bo'lib, o'quvchilarning u yoki bu mavzu bo'yicha erkin va bermalol o'ylashga yordam beradi. U faqat g'oyalar orasidagi bog'lanishlarni fikrlashni ta'minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. «Klaster» usulidan axborotlarni chorlash bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniladi. U muayyan mavzu sinchiklab o'rganilguncha fikrlash faoliyatini ta'minlashda foydalanish mumkin. (3-ilova)

«Klaster»larga bo'lish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

1. Hushingizga kelgan barcha fikrlarni yozib oling. Bu fikrlarni muhokama qilmang, shunchaki yozib olavering.
2. Matnni kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham parvo qilmang.

3. Sizga berilgan vaqt nihoyasiga yetmaguniga qadar yozishdan to'xtamang. Miyangizga fikr kelish to'xtab qolsa, toki yangi fikrlar kelguncha qog'ozga nimalarni chizib o'tiring.[4]

4. Imkoni boricha, bog'lanish mumkin bo'lgan bog'lanishlarni chizib chiqing.

«Klaster» usuli Stilning ta'biricha, bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda ham guruhda qo'llash mumkin. Guruh faoliyatida u guruh g'oyalarining tirgovichi sifatida xizmat qiladi.

«Kubik» usuli

«Kubik»lar (kovan va kovan 1980)-bu dars o'qitish usuli bo'lib, bu usul mavzuni o'rganishni osonlashtiradi. Har tomonlama 4 talablar berilgan kubiklardan foydalaniladi, kubikni biror bir qutichaga olib yoniga qog'ozlar yopishtirish bilan yasash mumkin, tomonlari 15-20 sm bo'lgani yaxshi. Kubikning 6 ta tomoniga quyidagi ko'rsatmalar yoziladi.

(4-ilova).

1.Nomi

2.Tuzilishi

3.Taqqoslang

4.O'xshating

5.Vazifasi

6.Yaxshi, yomon tomonlarini yoriting

7.Aytingchi, siz u bilan nima qila olasiz?. Undan qanday foydalanish mumkin?. Buning uchun sabablarni asoslab bering.[4]

O'quvchilar o'z fikrlarini aytadi. O'z sherigiga nima yozganini o'qib beradi.

Masalan:

1.Nomi-kitob

2.Tuzilishi-qog'oz, karton

3.Taqqoslang-daftardan ko'ra katta yoki kichik bo'lishi mumkin

4.O'xshating- to'rtburchakka o'xshaydi

5.Vazifasi-bilim berish

6.Yaxshi tomoni: rasmlari rang-barang, qiziq hikoyalar,

she'rlarni, ertaklarni o'zida jamlagan

Yomon tomoni: varaqlarining tez yirtilishi

«Sinkveyn» usuli

Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab fikrlarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkoniyati muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o'ylangan tahlilni talab qiladi. Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqea munosabati bilan yoziladigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishni talab qiladi. Sinkveyn so'zi fransuzcha so'z bo'lib, «besh» degan ma'noni beradi. Demak, sinkveyn 5 qatordan iborat she'rdir.

Sinkveyn yozib chiqish qoidasi quyidagicha:

- A) birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkimidagi oid so'z bilan).
- B) ikkinchi qatorda mavzu ikki so'z bilan izohlanadi (sifat so'z turkimiga oid ikki so'z bilan).
- V) uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha xatti-harakatlar 3 so'z bilan tasnif etiladi (fe'l so'z turkimiga oid uch so'z bilan).
- G) to'rtinchi qatorda temaga aloqadorlikni ko'rsatuvchi 4 so'zdan iborat gap yoziladi (yoki ibora).
- D) beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlavchi bir so'zdan iborat mavzu mohiyatiga yaqin so'z (sinonim). Masalan:

Tog'lar

Mag'rur, viqorli

Turadi, ko'rinadi, jilmaydi

Oq boshi ko'klarga yetar

Botirlar.

Amaliyotda sinkveyn:

- o'quvchilarning tushunchalar zahirasini baholash vositasi:
- axborotni sintezlash quroli:
- ijodiy ifodalilik vositasi sifatida juda foydalidir.

MUAMMOLI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayoniga tadbqiq etilishi muammoli ta’limni hozirgi sharoitda dolzarb pedagogik masalaga aylantirdi. Muammoli ta’limning asoiy maqsadi «Kadarlar tayoyrlash milliy dasturi»ning sifat bosqichi talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tadbqiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo‘li bilan egallanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisiga **muammoli ta’lim** deyiladi.

Muammoli ta’lim o‘zining maxsus tushunchalariga ega bo‘lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg‘ulotlarni muammoli tarzda tashkil etib bo‘lmaydi. Muammoli ta’lim quyidagi asosiy tushunchalarga ega:

- . muammo
- . muammoli savol
- . muammoli vazifa
- . muammoli topshiriq
- . muammoli vaziyat

Muammoli ta’limning dastlabki tushunchasi muammo hisoblanadi. Muammo yunoncha «problem» so‘zidan olingan bo‘lib, vazifa, topshiriq degan ma’noni anglatadi. Tayyor javobi bo‘lmagan, o‘rganish, tadqiq etishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala muammo hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati jarayonida cheksiz muammolarga duch keladi: shaxsiy muammolar, ijtimoiy muammolar, ta’lim-tarbiya muammolari va boshqalar. Bularning har biri o‘ziga xos yechim yo‘llariga ega. Ta’limiy muammolar bilim oluvchidan aqliy operatsiyalarni bajarishni talab etadi.

Muammoli ta’limning keyingi asosiy muammoli savol sanaladi. Muammoli savol tafakkur qilish yo‘li bilan izlangan noma’lumni topishni ta’minlaydigan so‘roq bo‘lib, alohida holda muammoli vaziyat va vazifalarning tarkibida bo‘lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi. «Nima uchun, nima

sababdan, buni qanday izohlab berasiz, bundan qanday xulosa chiqarish mumkin....?-kabi soʻroqlar muammoli savol paydo boʻlishini taʼminlaydi.

Masalan, Avloniyning «Vatanni suymak» haqidagi qarashlari 3-sinf darsligiga biroz qisqartirilgan holda taqdim etilgan va bu asar quyidagi muammoli savollarni berish mumkin.

1. Choʻlda, muzliklarda yashaydigan qanday xalqlarni bilasiz?. Ular nima uchun obod, quyoshli, bogʻ-rogʻlari bor yurtlarga koʻchib ketishni xohlamaydi?. Oʻylab koʻrib fikringizni bildiring.

Bir nechta yechimini kutayotgan muammoli savolning bir-biriga bogʻliq holda qoʻyilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi.

Muammoli vazifa sharti aniq boʻlgan, kimdir tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushunchadir.

Masalan, 3-sinf oʻqish darsligining 206-sahifasida «Ochkoʻzlik» nomli hikoya oʻrganish uchun taqdim etilgan.

Ushbu hikoya yuzasidan biz quyidagi muammoli vazifalarni berishimiz mumkin:

- hikoya qahramonini siz ham ochkoʻz hisoblaysizmi?. Nima uchun?.
- sizning nazaringizda ochkoʻzlik qanday boʻladi?. Ochkoʻzlikka xos xislatlarni bilasizmi?. Bu haqida bilganlaringizni sinfdoshlaringiz bilan oʻrtoqlashing.

Muammoli savol va vazifalar birgalikda muammoli topshiriqning tarkibida kelishi mumkin.

Muammoli topshiriq - oʻqituvchi, taʼlim beruvchi, kitob muallifi tomonidan muammoli savol va vazifa shaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan oʻquv topshirigʻidir.

Muammoli topshiriq esa oʻz navbatida muammoli vaziyatga olib kiradi.

Muammoli vaziyat-subʼektning psixologik holati boʻlib, muammo bilan duch kelganda aqliy qiyinchilikni paydo boʻlishi zudlik bilan hal qilishga xalaqit beradigan yangi bilim va harakat usularini izlash, ularni topib, hosil boʻlgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni taʼminlaydi.

Muammoli holat shaxsni yangi bilimlar olishga da'vat etadi. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun shunday muammoli ta'lim elementlaridan qo'llashi kerakki, toki ularga darslikda tayyor javob bo'lmasin. Bola o'ylasin, izlansin, qo'shimcha kitoblar qarashga, matnga qayta-qayta murojaat qilishga harakat qilsin, chunki darsliklarda taqdim etilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash o'quvchilardan ortiqcha fikriy zo'riqish talab qilmaydi. Bunday ishlash bilan fikr kishisini tarbiyalash mumkin emas.

Muammoli ta'limda mashg'ulotning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi:

- gapni bo'lmaslik:
- bir-birini eshita bilish:
- navbat bilan gapirish ko'nikmasi:
- qo'l ko'tarish qoidasiga amal qilish:
- sabr toqatli bo'lish, o'zaro hurmat:

Darsni muammoli tarzda tashkil qilish uchun birinchi galda o'quvchi bahs-munozara yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo'lishi lozim. Buning uchun qo'yiladigan muammolarga bog'liq bo'lgan tushunchalar yuzaga keltiriladi. So'ngra muammoga aniqlik kiritiladi, ma'lum xulosalar chiqariladi.

Muammoni hal etish jarayonida o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash maqsadida bu jarayonni shartli ravishda quyidagi uch fazaga ajratish mumkin:

1. Chaqiruv fazasi
2. Anglash fazasi
3. Fikrlash fazasi

Chaqiruv bosqichi - bunda o'qituvchi bolarning yangi mavzuga oid dastlabki tushunchalarni aniqlaydi.

Chaqiruv bosqichining maqsadi:

- dastlabki tushunchalarni aniq, erkin namoyon qilish:
- fikrini namoyon qila olish:
- darsga bo'lgan qiziqishni oshirish kabilardan iboratdir.

Anglash bosqichi - bunda o'qituvchi o'quvchilardan olgan dastlabki tushunchalariga qo'shimcha ma'lumotlarni jamlab, yangi bilim bilan boyitish, ya'ni o'quvchining bilgan va bilmagan ma'lumoti to'ldiriladi.

Anglash bosqichining maqsadi:

- dastlabki tushunchalardan kelib chiqib, yangi bilim bilan to'ldirish:
- o'quvchilar qiziqishini orttirish:
- tahlil qilishga-taqqoslashga o'rgatish:
- yangi darsni bayon etish.

Buning oldini olish uchun nima qilish kerak?. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rivojlantirib turilishi, o'quv mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollar keltirish, o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan joyida va o'z vaqtida foydalanish talab etiladi. Prezidentimiz I.A Karimov milliy mafkura masalalariga to'xtalar ekan, «fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat» zarurligini uqtiradi va o'qitish erkin fikrli kishilarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi, bu islohatlarni amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tadi. O'sib kelayotgan yosh avlodda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, sog'lom va barkamol naslni tarbiyalab etishtirish murabbiylarning muhim burchidir. Chunki mustaqil fikrlovchi o'quvchilargina kelajakda har tomonlama yetuk, barkamol insonlar bo'lib yetishib, mustaqil respublikamizni ilg'or jahon davlatlari qatoriga olib chiqadilar.

2-bob bo'yicha xulosa.

Yuqorida bayon etilgan xulosalarga tayangan qolda boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilari o'rtasida yangi pedagogik texnologiyalar moqiyati borasidagi nazariy-amaliy bilimlarni targ'ib etish, ularda pedagogik faoliyat jarayonida ko'nikma va malakalarni qosil qilish, bu borada samaradorlikka erishish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqish, uni O'zbekiston Respublikasi qududida faoliyat olib borayotgan boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilari o'rtasida keng targ'ib etish.

2. Boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning yaxlit tizimini yaratish va o'quvchilarning faolligini oshirish..

3. Boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarining pedagogik texnologiyalar nazariyasi oid manbalar bilan qurollantirish va o'quvchilarning faolligini oshirish..

4. Boshlang'ich sinf darslarida foydalanadigan manbalar mazmuniga yangi pedagogik texnologiyalar elementlarini singdirish va o'quvchilarning faolligini oshirish..

5. Boshlang'ich sinf darslari o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yangi pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslariga oid o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash.

6. Boshlang'ich sinf darslari uchun o'qituvchilar tayyorlaydigan fakultetlarning boshlang'ich sinf o'quvchilariini yangi pedagogik texnologiyalar bilan uzluksiz qurollantirib borishga erishish lozim.

III-Bob.O‘quvchilarining ijodiy faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalar asosida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish metodikasi.

3.1. Tajriba-sinov bo‘yicha dars ishlamanlar va natijalar tahlili.

Biz amaliyot davrida boshlang‘ich sinf darslarini pedagogik texnologiya asosida o‘tishga erishdik. Har bir darslarni kuzatib, taxlil qilib pedagogik texnologiyani an’anaviy darslardan, farqi juda katta ekanligiga ishonch hosil qildik. Pedagogik texnologiyaning afzalligi bunda o‘quvchilar ishtiroki muhim o‘rin tutadi va samarali kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

Biz tajribalar o‘tkazib, pedagogik texnologiya asosida o‘tilgan darslar qiziqarli va yaxshi o‘tadi deb o‘yladik.

Amaliyot vaqtida qo‘llangan zamonaviy pedagogik texnologiya elementlari asosida tuzilgan darslardan dars ishlanmalari bo‘yicha, namunalar keltirdik.

3-sinf ona tili darslari bo‘yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan bir soatlik dars reja ishlanmasi.

Mavzu: O‘zak va o‘zakdosh so‘zlar.

I. Tashkiliy qism.

- A) salomlashish.
- B) davomatni aniqlash.
- S) o‘quvchilarning darsga tayyorgarliklari.

II. Asosiy masalalar.

1. O‘tilgan “Urg‘u” mavzusini takrorlash.
1. O‘zak va o‘zakdosh so‘zlar haqida tushuncha.
2. O‘zakdosh so‘zlardan o‘zak qismini aniqlashga doir mashqlar bajarish.

Tayanch tushuncha va iboralar: o‘zak, o‘zakdosh so‘zlar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, yasama so‘zlar.

I-asosiy masala bo‘yicha o‘qituvchining maqsadi: so‘zlarda uchraydigan urg‘ularni to‘g‘ri aniqlay olish va qo‘llashga oid tushuncha hamda ko‘nikmalarini mustaxkamlash.

I-asosiy masala bo‘yicha o‘quvchilar bajaradigan (IO‘M) vazifalari:

- 1.1.** So‘z bo‘g‘inlarida uchraydigan urg‘uga ta’rif beradilar.

1.2. Urg‘u ko‘pincha so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushushni aniqlaydilar.

I-asosiy masala bo‘yicha o‘quv materialining bayoni:

“Aziz o‘quvchilar! Bu o‘tgan darsimizda qaysi mavzuni o‘tganmiz?”-deb so‘raydi o‘qituvchi. O‘quvchilar birgalikda “Urg‘u” mavzusini o‘tganmiz - deydilar.

-O‘qituvchi yaxshi qani kim menga aytadi, urg‘u ko‘proq so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushadi?

So‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi deydi o‘quvchilar.

Yaxshi to‘g‘ri, juda to‘g‘ri endi kim menga aytadi, urg‘u deb nimaga aytiladi?

To‘g‘ri javob bergan o‘quvchini baholayman.

O‘quvchilar biroz o‘ylanishdi, keyin bitta o‘quvchi turib urg‘uni qoidasini to‘g‘ri aytdi o‘qituvchi a’lo baho qo‘ydi.

Demak, urg‘u qo‘shimcha so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushar ekan. qani bir-ikkita misol keltiraylikchi. Demak, gulchi, gulchilar, gulchilardan so‘zlari. Birinchi so‘zda-chi, ikkinchi so‘zda-lar, uchinchi so‘zda-dan bo‘g‘inlariga urg‘u tushyapti. Nima uchun?

Chunki shu bo‘g‘in boshqa bo‘g‘inlarga nisbatan qattiqroq aytilyapti.

Urg‘u so‘zning boshqa bo‘g‘inlariga ham tushushi mumkinmi?, Ha deya javob berishadi. Demak, urg‘u so‘zning qaysi bo‘g‘inini boshqalariga nisbatan qattiqroq ohang bilan aytsak o‘shanga tushar ekan, shundaymi? Ha.

Hammalaring urg‘u mavzusiga tushundilaringmi?

Ha.

Unday bo‘lsa yangi mavzuni boshlaymiz.

1-asosiy masala bo‘yicha nazorat topshiriqlari.:

1.1.2. So‘z bo‘g‘inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishiga deyiladi.

Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib o‘qing.

A) Gap.

V) Urg‘u.

S) Bo‘g‘in.

1.4.1. Urg‘u ko‘pincha so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushadi?

A) Boshiga

V) Oxiriga

S) O‘rtasiga

1.4.2. Urg‘u so‘zning boshqa bo‘g‘inlariga ham tushishi mumkinmi?

A) Ha.

V) Yo‘q.

S) A va V

2-asosiy masala bo‘yicha o‘qituvchining maqsadi: o‘zak, o‘zakdosh so‘zlar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar haqida o‘quvchilarda tushuncha hosil qilish va ularni bir-biridan farqlay olishga o‘rgatish; gullarga, tabiat go‘zalliklariga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish.

2-asosiy masala bo‘yicha o‘quvchilar bajaradigan (IO‘M) vazifalari:

2.1. O‘zak va o‘zakdosh so‘zlarning ta‘rifini aytib beradilar.

2.2. O‘zak va o‘zakdosh so‘zlarni ajratib beradilar.

2.3. So‘z yasovchi qo‘shimchalarga aniqlik kiritadilar.

2.4. Yasama so‘zlarni farqlaydilar.

2-asosiy masalaning bayoni.

Yozuv taxtasiga sana hamda yangi “O‘zak va o‘zakdosh so‘zlar” mavzusi yoziladi.

O‘qituvchi yangi mavzuni quyidagi tablitsa asosida suhbat yo‘li bilan tushuntirishdan boshlaydi.

Suhbat taxminan quyidagicha boshlanishi mumkin: hammamiz yozuv taxtasiga o‘rnatilgan tablitsaga qaraymiz. Unda gul va ish so‘zlaridan yasalgan so‘zlar yig‘indisini ko‘rib turibmiz. Shundaymi? (ha). Bu yerda gulzor so‘zi ham bor ekan. Gulzor nimaligini hammamiz bilamizmi? (Ha) Gulzor qanaqa joy ekan? (gulzor gullar ko‘p ekilgan joylar) gulzorlarni ko‘rganda kishilarning baxridili ochilib ketadi. Shuning uchun ham ko‘chalarimizga gul ko‘chatlarini ekib qo‘yamiz, ularni parvarish qilamiz. Bundan maqsad nima? Ko‘chalarimizni chiroyli qilish, xovlilar va yo‘llarning ozodaligini saqlash. Shundaymi (Ha). Endi yozuv taxtasiga qaraymiz. Gul va ish so‘zidan yasalgan so‘zlarni alohida-alohida

bo'g'inlarga ajratsak bo'ladimi? (Ha). Gul va ish so'zining o'zinichi, ma'noli bo'laklarga ajratsak bo'ladimi? (Yo'q). Nega?

- Chunki ular bir bo'g'indan iborat.
- To'g'ri, demak, gul va ish so'zlarining umumiy qismi bo'lib, boshqa bo'laklarga bo'linmas ekan shundaymi?
- Ha.
- Endi biz tarifni keltirib chiqaramiz. Demak, so'zning tub ma'nosini bildirib, ma'noli bo'laklarga bo'linmaydigan qismi o'zak deyiladi.

O'zakni mana bunday belgilash lozimligi o'qituvchi tomonidan uqtiriladi va yozuv taxtasiga chizib ko'rsatiladi.: so'ngra darslikda berilgan gulzor, bog'bon, chizg'ich, guldor, bog'dor, chiziq, guldor, bog'bonlik, gulla, chiziqcha, bog'cha, gulsiz, chiziqli, gulchi, so'zlarining qaysilarini gul o'zagidan qaysilari bog' o'zagidan, qaysilari chiz o'zagidan yasalganini og'zaki aniqlatiladi, o'qituvchi tomonidan. Bir o'quvchiga gulzor, guldor, guldor, gulla, gulsiz, gulchi so'zlarini, ikkinchi o'quvchiga bog'bon, bog'dor, bog'bonlik, bog'cha so'zlarini, uchinchi o'quvchiga esa chizg'ich, chiziq, chiziqcha, chiziqli so'zlarini ajratib o'qish hamda bu so'zlarning o'zagini aniqlash topshiriladi. Ular topshiriqni bajarishganidan so'ng "Bir o'zakdan hosil bo'lgan, ya'ni o'zaklari bir xil bo'lgan so'zlar o'zakdosh so'zlar deyiladi" degan qoida tushuntiriladi.

Shu o'rinda o'quvchilarni so'z yasovchi qo'shimchalarning ta'rifi bilan tanishtiriladi. "O'zakka qo'shilib, yangi ma'noli so'z hosil qilinadigan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi". So'z yasovchi qo'shimchalarni mana bunday qilib belgilaymiz deb ko'rsatiladi. Masalan, deb traktorchi, ishla, mevali, tuzsiz, gulzor, o'zbekiston kabi so'zlar bilan tushuntiriladi. Keyin bitta so'zga turldi so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan o'zakdosh so'zlar hosil qilinishi aytib o'tiladi va bir nechta misollar yordamida amalda ko'rsatiladi.-chi,-la,-li,siz,-gan,-zor, -iston,-kor, dor, bon kabi qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar bo'lib hisoblanishi, bunday qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlar yasama so'zlar deyilishi o'qituvchi tomonidan bayon qilinadi.

2-asosiy masala bo'yicha nazorat topshiriqlari.

2.1.1. Soʻzlarning qanday qismiga oʻzak deyiladi?

A) Soʻzlarning tub qismiga

V) Maʼnoli boʻlaklariga boʻlinmaydigan qismiga.

S) Soʻzning tub maʼnosini bildirib, maʼnoli boʻlaklarga boʻlinmaydigan qismiga.

2.1.2. Bir oʻzakdan hosil boʻlgan soʻzlar soʻzlar deyiladi.

Nuqtalar oʻrniga quyida berilgan soʻzlardan mosini qoʻying?

A) oʻzakdosh.

V) oʻzak.

S) Yasama.

2.2.1. Oʻzak va bir xil oʻzakdosh soʻzlarga misollar toʻgʻri keltirilgan qatorni aniqlang?

A) ish, ishla, suvsiz, gulla, ishchi, ishsiz, ishchan, ishli.

V) gul, gulla, gulzor, guldor, guliston, gulchi, gulli.

S) A va V javoblar toʻgʻri.

2.3.1. Oʻzakka qoʻshilib, yangi maʼnoli soʻz hosil qaladigan qoʻshimchalar:

A) soʻz yasovchi

V) oʻzakdosh

S) toʻgʻri javob berilmagan.

2.3.2. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar keltirilgan qatorni aniqlang?

A) –la, –siz, –zor, –chi, –kor;

V) –illa, –ib, –chi, –zor;

S) –b, –kor, –dor, –iston, –chi.

2.4.1. Yasama soʻzlarni ajrating?

A) Bogʻda, gulzor, chirsilla;

V) yonma, ochil, paxtakor;

S) ishchi, bogʻbon, guliston.

3-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi:

oʻzakdosh soʻzlardan oʻzak qismini aniqlay olish koʻnikmalarini shakllantirish, oʻzgarlar mehnatini hurmat qilishga odatlantirish.

3-asosiy masala bo'yicha o'quvchilar bajaradigan (IO'M) vazifalari;

- 2.1. O'zkdosh so'zlarning o'zak qismini aniqlaydilar.
- 2.2. 76-mashqda berilgan o'zkdosh so'zlarni topib, yonma-yon yozadilar.
- 2.3. 76-mashqdagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzadilar.
- 2.4. 78-mashqda berilgan ot va sifatlarga o'zkdosh fe'llar tanlab, yozib, o'zakni belgilaydilar.

3-asosiy masalaning bayoni:

Mavzuning nazariy qismi tugagandan so'ng, amaliy qismiga, ya'ni mashqlar bajarishga o'tiladi. O'quvchilar diqqati kitobdagi 75-mashqqa qaratiladi. Mashqning sharti o'qib tushuntirib beriladi. Unga ko'ra o'quvchilar o'zkdosh so'zlarning o'zak qismini aniqlab, namunadagidek belgilaydilar.

Namuna: ishla, ishsiz, ishli, ishchi, ishchan.

Sutli, sutchi, sutsiz; kuchli, kuchsiz; yo'lda, yo'lchi, yo'lli, yo'lsiz, yo'ldosh; bog'bon, bog'li, bog'siz.

Keyin darslikdagi 76-mashqni o'qib o'zkdosh so'zlarni topib, yonma-yon yozib chiqadilar.

Hazillashmoq, hazilkash; qadrli, qadrlamoq, qadrdon, qadsiz, beqadr; o'ychan, o'ylamoq; yaralamoq, yarador, yarali, yarasiz; g'allakor, g'allasiz; o'tloq, sero't, o'tli, o'tlamoq.

Birinchi shartni bajaribbo'lganlaridan so'ng, ikkinchi shartga o'tadilar. Keyingi shartida belgilab qo'yilganidek ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida bittadan gap tuzadilar. Mashqda g'allakor, sero't, o'tlamoq so'zlari ajratib ko'rsatilgan. O'quvchilar taxminan quyidagicha gaplar tuzishsa kerak:

1. Hozirgi g'allakorlarning ishlari ayni qizigan palla.
2. qishloq ekinzorining aksariyat qismini sero't maydonlar tashkil qiladi.
3. Ayrim-ayrim joylarda echki-uloqlarning o'tlab yurgani ko'zga tashlanadi.

Keyin 77-mashqni o‘qib, og‘zaki bajaradilar, ya’ni o‘zakdosh so‘zlarni aniqlaydilar va o‘zak bilan qo‘shimchalarni ajratib aytib berishadi: Kitobni, kitob, kitobsiz, kitobdan, kitobxon.

Mashg‘ulot so‘ngida 78-mashqni yozma bajaradilar. Ot va sifatlarga o‘zakdan fe’llar tanlab, birinchi qatordagidek qilib yozibo‘zakni belgilaydilar.

Ov-ovla

Tuz-tuzla

Ish-ishla

Iz-izla

Oq-oqla

qora-qorala

Sara-sarala

Toza-tozala

Yo‘l-yo‘lla

O‘t-o‘tla

So‘z-so‘zla

qish-qishla.

3-asosiy masala bo‘yicha nazorat topshiriqlari:

Bir o‘zakdosh so‘zlarning o‘zak qismini to‘g‘ri belgilangan qatorni aniqlang?

A) o‘tla, o‘tchi, o‘tzor;

V) bahavo, baquvvat, bahuzur;

S) o‘tli, suvli, sutli.

3.2.1. O‘zakdosh so‘zlarni ajrating?

A) o‘tla, o‘tda, suvda;

V) yo‘ldosh, yo‘lchi, yo‘lsiz;

S) bog‘bon, suvdon, bog‘la.

3.3.2. O‘zakdosh fe’llar to‘g‘ri keltirilgan qatorni ajratib ko‘rsating?

A) ovla, oqla, gulla;

V) ovchi, oli, gulzor;

S) ovla, oqish, guldor.

4-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi:

o'tilgan yangi mavzuni qanday o'zlashtirganliklarini bilish va uy ishi asosida bilimlarini baholash.

4-asosiy masla bo'yicha o'quvchilar bajaradigan (IO'M) vazifalari:

4.2. –la qo'shimchasini qo'shib o'zakdosh fe'llar yasaydilar.

4.4. O'zakdosh fe'llarning o'zak qismini belgilaydilar.

4.5. Kuyla, ishla, o'zakdoshso'zlarini qatnashtirib gap tuzadilar.

Uy ishi materiali bayoni.

80-mashq. quyidagi otlarga-la qo'shimchasini qo'shib, o'zakdosh fe'llar hosil qiling, o'zakni belgilang.

Namuna: Bosh-boshla.

Kuy-, bog',-don,-qattiq,-zang,-ish,-yo'q.

O'zakdosh so'zlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.

4-asosiy masala bo'yicha nazorat topshiriqlari:

4.1.1. O'zakdosh fe'llar to'g'ri yasalganmi?

Ishla, so'zla, yo'qla.

A) yo'q.

V) ha

S) ikkalasi ham to'g'ri.

4.2.1. O'zakdosh fe'llardagi o'zak to'g'ri ajratilgan qatorni belgilang?

A) o'tla, o'tli, sero't;

V) sersuv, sero't, seriltifot;

S) beg'am, bedor, befahm.

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

Mavzu: Bosh kitob (Safar Barnoyev)			
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Haq-huquqimiz, kitob, O'zbekiston, qomuslar-qomusi			
Soatlar soni: 1 soat			
Mavzuning qisqacha tahrifi: She'rda Bosh qomusimiz bo'lgan Konstititsiyamiz haqida, uning qomuslar qomusi, erkinligimiz kafolati ekanligi haqida gap boradi.			
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: Yangi bilim beruvchi, she'r o'tish darsi. Metod: suhbat, ifodali o'qish, tushuntirish, tarmoqlash, muammoli izlanish, munozara. Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash Jihoz: She'r asosida tayyorlangan slayd, Konstitutsiya kitobi, darslik. Nazorat: O'quvchilarning darsdagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Maqsadlar:			
Ta'limiy: O'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish. Lug'atlarini yangi so'zlar bilan boyitish. Tarbiyaviy: Tabiatga mehr berish ruhida tarbiyalash, o'zaro munosabatlar etikasini o'rgatish. Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish. Vatanga, tabiatga muhabbat tuyg'ularini mustahkamlash.			
Kutilayotgan natija:			
Dars yakunida o'quvchilar she'rni to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladilar. Yangi so'zlarni tushunadilar, nazmiy materiallarni tahlil qilishga o'rganadilar. Ijobiy axloqiy sifatlarni o'zlashtiradilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish nomi	Metod	Vaqt

1-bosqich Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.	Suhbat	2 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash	Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Muno- zara	2 daqiqa
3-bosqich Darsning borishi	1. O'tgan dars so'raladi, o'quvchilar bilimi baholanadi. 2. Yangi darsni o'qishga tayyorgarlik va bolalar shoiri Safar Barnoyev haqida ma'lumot berish. 3. O'qituvchi "Bosh kitob" she'rini ifodali o'qib beradi. She'rning mazmuni ustida ishlanadi. 4. Lug'at ishi 5. O'quvchilarga she'r o'qitiladi. She'rning mazmuni tushuntiriladi.	Savol javob (tarqatm a material- lar asosida) Suhbat Ifodali o'qish Munozar a	5 daqiqa 5 daqiqa 6 daqiqa 5 daqiqa 6 daqiqa
4-bosqich Mustahkam-lash	1. Tarmoqlash metodi asosida olib boriladi. 2. Darslikdagi savollarga javob topiladi.	Muam- moli izlanish	3 daqiqa 4 daqiqa 3 daqiqa
5-bosqich Baholash. Darsni yakunlash	O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, ballari e'lon qilinadi va dars yakunlanadi.		2 daqiqa
6-bosqich	She'rni yod olish va mazmuniga mos rasm chizib kelish.	Tushun- tirish	2 daqiqa

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: Salomlashiladi. Davomat aniqlanadi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular

1. Intizom

2. Ahillik

3. Faollik

4. Aniqlik

5. O'ng qo'l qoidasi

6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (Slayd orqali ham namoyish etiladi)

Endi bugungi darsimiz shiorini e'lon qilsam.

Bizning shior: **OLTIN OLMA BILIM OL,**

BILIM OLSANG BILIB OL.

2. Uyga vazifani so'raladi.

O'qituvchi: O'quvchilar uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: Uyga O'tkir Hoshimovning "Chana" hikoyasini ifodali o'qish berilgan.

O'qituvchi: Hamma o'qib keldimi?

O'quvchilar:

2-3 ta o'quvchidan uyga vazifa so'raladi.

O'tgan mavzuni mustahkamlash yuzasidan qolgan o'quvchilarga **tarqatma materiallar** yordamida savollar tarqatiladi. Javoblar olinganidan so'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchilar baholanadi. O'tgan mavzu o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi xulosalanadi.

3. Yangi mavzu bayoni:

O'quvchilarda yangi mavzuni o'rganishga qiziqish uyg'otish maqsadida Rebus yechdiraman.

Savol: Bugungi o'qish darsimiz qaysi mavzu haqida ekan?

.....**Kirish suhbat:** Slayd orqali dekabr oyida nishonlanadigan bayramlarga mos rasmlar ko'rsatiladi va savollar beraman.

- Dekabr oyida qanday bayramlar nishonlanadi?
- Ushbu oyda keng miqiyosida nishonlanadigan asosiy bayram?
- Davlat ramzlaridan biriga she'r ayting.

Xattaxtaga "Bosh kitob" (Safar Barnoyev) deb yozaman.

-She'r muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz

***Safar Barnoyev** - iste'dodli bolalar adibi. 1938 yil Buxoroda tug'ilgan. Birinchi she'ri 1959 yilda "Lager qo'ynida" nomi bilan? Birinchi she'riy to'plami 1970 yilda "Tog'damen" nomi bilan bosilib chiqqan.*

Shundan so'ng uning "Birinchi tabassum" (1970), "Dadmning qo'llari" 1974, "Yulduzxon va Bahorjon" (1977), "Oq laylaklar" (1982) abi qator she'riy to'plamlari nashr eyilgan.

Mazkur to'plamlarga kiritilgan asarlarning bosh qahramonlari yoshlar, o'smirlardir.

She'rni o'zim ifodali o'qib beraman.

Ozod erkinlikning ramzi bu kitob

Unda aks etgandir haq haqqimiz

Yo'limiz yoritar , misoli oftob

Qo'lda baland tursa Agar tug'imiz,

Millionlar taqdiri unda mujassam

Qomuslar qomusi deydi xalqimiz

Er sharin yoritdi. O'zbekiston ham

Yurtga fido bo'lsak

Kular baxtimiz.

She'r yuzasidan kirish suhbat:

-She'r nima haqida ekan?

- unda nimalar tasvirlangan?

She'rdagi qaysi jumlar sizga juda yoqdi? Nima uchun?

Dam olish daqiqasi:

Slayd asosida olib boriladi.

She'rni qatorlarga bo'lib o'qitaman.

1-qator birinchi to'rtlikni o'qiydi.

Ozod erkinlikning ramzi bu kitob

Unda aks etgandir haq haqqimiz

Yo'limiz yoritar , misoli oftob

Qo'lda baland tursa Agar tug'imiz,

Kular baxtimiz Lug'at ishi.

Tug'-
Haq-huquqimiz
Yer shari
Fido

Yangi mavzuni mustahkamlash. O'quvchilarning Konsitutsiya haqidagi bilimlarini kengaytirish maqsadida tarqatma materiallar orqali savol javob qilinadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qachon qabul qilingan?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi nechta moddadan iborat?
3. Konstitusiyda qanday huquqlarimiz aks etgan?
4. Bu yil Konstitutsiyamiz qabul qilinganligiga necha yil boldi?

Shuningdek, tarmoqlash metodi orqali mavzu xulosalanadi.

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa.

She'rni yod oling. She'r mazmuniga mos rasm chizing.

Tajriba- sinov ishlarining natijalari

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda tajriba-sinov ishlarining maqsadi deb -o'quvchilarni boshlang'ich sinflarda

pedagogik texnologiya elementlari ta'lim muassasalariga, amaliyotga joriy qilish yo'li bilan o'rganib, baholash deb belgiladik.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

Izlanuvchan tajriba bosqichi. Bunda boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiya elementlari xususiatlarian kelib chiqqan holda, o'quvchi shaxsini shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish shakllari va mazmuni ishlab chiqildi

Ta'kidlovchi tajriba bosqichi. Bunda ishlab chiqilgan talim mazmuni va metodlari bevosita o'quvchilarning pedagogik texnologiya jarayonida sinab ko'rildi.

Shakllantiruvchi tajriba bosqichi. Bunda o'quvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyasini ishlaganlik darajasi tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari Abdullaeva Bikbaeva N., N.Azizxodjaeva, Zaripov K, Ismoilova Z, Yuldoshev J, Ogaev S, OchilovM, M.Saidahmedov, Tolipov U, L Farberman, O'.q.Tolipov va boshqalarning ilmiy ishlaridan keltirilgan umumiy tavsiyalardan kelib chiqib, Davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim maqsadlariga mos ravishda olib borildi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash tajriba-sinov ishlarini olib borish va uning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida olingan natijalarning amaliy ahamiyati va bir-birini to'ldiruvchi metodlar majmuasini qo'lladik.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun 2006-2007 yillar mobaynida Sirdaryo viloyati Guliston shaxridagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari orasida tadqiqot ishlari olib borildi. Mazkur tadqiqot ishlari natijasida 60 ta o'quvchining 30 nafari tajriba guruhi, 30 nafari nazorat guruhiga jalb etildi. Tajriba guruhlarida mashg'ulotlar biz taklif etgan yangi pedagogik texnologiya asosida, nazorat guruhlarida esa an'anaviy usulda amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki izlanuvchan bosqichida o'quvchilarning qaysi xalq maqollarini bilishi, qiziqishi tahlil qilindi. Ular bilan ishlash yo'nalishini

belgilashni maqsad qilib qo'ydik. Mazkur metodlar orqali o'quvchilarning o'qish fanidan maqollarga bo'lgan qiziqishlarni belgilab oldik.

Tajriba-sinov ishlarining mazkur bosqichini amalga oshirish uchun o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlashga xizmat qiluvchi o'qitish metodlarini belgilab oldik (tushuntirish, suhbat, munozara).

Tushuntirish – ayrim tushunchalar, voqealar, harakat prinsiplarini og'zaki talqin etish deb anglash lozim. O'qitishning bu metodida eng asosiy narsa mushohadalarni ilmiy isbotlash mantiqidir.

Suhbat – fakt-dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi. Suhbat tadqiqotning mustaqil yoki yordamchi metodi sifatida qo'llaniladi.

Munozara – suhbatning yanada rivojlanishidir. Munozara davomida o'quvchilarning fikrlashidani xususiy cheklanish barham topadi. Mustaqil mulohaza yuritish rivojlanadi. Yuqorida keltirilgan metodlarni quyidagi tajriba-sinov maydonida sinab ko'rdik.

Tajriba-sinov ishlarmizning izlanuvchan va ta'kidlovchi bosqichlarida maktab o'quvchilarininsh xalq maqollari to'g'risidagi tushunchalarini o'rganish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan anketalar yordamida so'rov o'tkazildi. Olingan natijalar tahliliga asosan o'quvchilarni mehnatsevarlik haqidagi maqollarga bo'lgan munosabat darajalarini belgilab oldik.

UMUMIY XULOSA

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan isloqotlar uning samaradorligini ta'minlash, barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab yetishtirishga xizmat qiladigan uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgandir. Boshlang'ich sinf darslarini faoliyatini takomillashtirish, jumladan, yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, bu borada samaradorlikka erishish, mustaqkam moddiy-texnik bazasini yaratish, boshlang'ich sinf darslarini zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlash, shuningdek, yuksak malaka, pedagogik maqorat qamda chuqur mutaxassislik bilimlariga ega bo'lgan pedagog kadrlar bilan ta'minlash kabi masalalarga jiddiy e'tibor berilmoqda.

. Shu maqsadda boshlang'ich sinf darslarida amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarni faolligini oshirish bo'yicha tajriba sinov o'tkazildi.

2. Pedagogika fanida bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlar doirasida boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muammosini tadqiq etishga yo'naltirilgan tadqiqotlarning olib borilmaganligi muammoning nazariy-amaliy asoslarini o'rganish jarayonida ayon bo'ldi.

3. Boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning amaliyotdagi va o'quvchilarning faolligini oshirish mavjud aqvoli o'rganildi.

4. Boshlang'ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning mavjud qolatini o'rganish tadqiqot doirasida amalga oshiriladigan tajriba-sinov ishlarining keyingi bosqichlarida olib borilgan faoliyatning moqiyatini oydinlashtirish imkonini berdi.

5. Boshlang'ich sinf darslarining tarkibiy qismlaridan biri sinf darslari bo'lib, uni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish boshlang'ich sinf

o'quvchilariga o'quv qamda mutaxassislik fanlarining asoslari to'g'risida chuqur ma'lumotlar olish darslarida o'z imkoniyatlarini erkin namoyish etish, faollikka erishish kabi ko'nikmalarni shaqllantirish, boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga oz jismoniy kuch sarflab, ko'proq samaraga erishish uchun imkoniyat yaratdi.

boshlang'ich sinf darslarida ta'lim soqasidagi muvaffaqiyatlarga erishishning asosiy omili ushbu o'quv muassasalari o'qituvchilarida boshlang'ich sinf darslariga nisbatan texnologik yondashuvni qaror toptirishdan iboratdir. Ammo o'qituvchilarda darslariga nisbatan texnologik yondashuvni qaror toptirish ularda, avvalo, pedagogik texnologiya moqiyati borasidagi nazariy bilimlarning qosil bo'lishi zarurligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida boshlang'ich sinf meqnat ta'limi darslari o'qituvchilarining nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ko'nikma va malakalarni shaqllantirish borasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishish respondentlar tomonidan yangi pedagogik texnologiyalar moqiyatini puxta o'zlashtirishlariga imkon yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., “O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008-y. – 40 b. 8-11 betlar.
2. O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997-y. 296 b. 23-27 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq”,1997-y. 31-bet.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: “Sharq” nashriyoti, 1999-y. – 248 b. 14-bet.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1997-y. 9-bet.
6. Karimov I.A. Bizdan obod va ozod vatan qolsin. №2. – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 1996-y. – 380 b. 96-97 betlar.
7. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 1996-y. – 364 b. 48-49 betlar.

III. Asosiy adabiyotlar

8. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU. 2003-yil. 174 b. 92-bet.
9. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma). – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006-y. – 160 b. 66-bet.
10. Bahromov A.D. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – T.: “Cho'lpon”, 2012-y. – 120 b.
11. Bepalko V.P. Pedagogika i progressinoe texnologii obucheniya – M.: IRPO, 1996 g. – 336 S. 27 s.

12. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. (Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma). – T.: “Turon-Iqbol”, 2006-y. – 112 b. 13-bet. 11-12 betlar.
13. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Tib-kitob”, 2009-y. – 184 b. 160-170 betlar. 114-bet. 72-bet.
14. Ziyomuhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. – T.: “Lider press”, 2009-y. – 104 b. 56-bet.
15. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari tarbiyachi-o'qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) –T.: Iste'dod, 2010-y. –141 b. 34-37 betlar.
16. Yo'ldoshev J.G', Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. “Interfaol ta'lim sifat kafolati” (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim). – T.: 2008-y. – 172 b. 11-bet.
17. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: “Fan va texnologiya”, 2008-y. – 132 b. 20-bet.
18. Yo'ldoshev J.G', Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2009-y. – 492 b. 41-42 betlar. 48-49 betlar.
19. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiq asoslari. (O'quv qo'llanma) – T.: “Fan” nashriyoti, 2006-y. – 261 b. 78-85 betlar.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar

20. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T., “O'qituvchi” nashriyoti, 1992-y. 160 b. 23-bet.
21. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y. – 224 b. 185-bet.
22. Yo'ldoshev J.G'. Uzluksiz ta'lim: malaka oshirish muammolari va yechimlari. – T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 1991-y. – B. 6-bet.
23. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya aoslari, savollar, javoblar (Kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanma) – T.: “Talqin”, 2010-y. – 128 b. 6-bet.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

Dissertatsiya va avtoreferatlar:

24. Zokirov I.I. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbqiq

etishning nazariy-amaliy asoslari. (kasb-hunar kollejlari misolida). Ped.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. – T.:2005-y. 124 b. 9-b.

Ilmiy jurnal va konfrensiya maqolalari:

25. Abdullayev H., Mirzayeva M. Ta'lim samaradorligining muhim shartlari // Xalq ta'limi. 1993-y. 8-9. – B. 3.

26. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi. – Ma'rifat, 1999-y. 17-mart. № 9. 5-bet.

27. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya asoslari // "Maktab va hayot" jurnaliga ilova. – T.: O'zPFITI, 2003-y. – 32 b.

VI. Internet saytlari

69. <http://www.Norma.uz>. O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to'plami sayti.

70. <http://www.pedagog.uz>.

71. <http://www.ziyo.net.uz>. O'zbekiston respublikasi talim sayti.

72. <http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>

73. <http://dl.nw.ru/theories/technologies> (Kraevskiy V.V. Проблемы научного обоснования обучения. – M.: 1977 g.)

74. <http://www.Uzedu.uz>, e-mail: info@uzedu.uz O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi qarorlari. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – T.: Respublika ta'lim markazi. 2010-y. 143 b. 138-142 betlar.